

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

N.Husanov, S.Shokirova, K.Shayxova

O‘ZBEK TILI

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT-2005

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

N.Husanov, S.Shokirova, K.Shayxova

O‘ZBEK TILI

**(Iqtisodiyot oliy o‘quv yurtlarining umumiy
guruhlari uchun o‘quv qo‘llanma)**

Oliy ta’limning 340000 – «Biznes va boshqaruv» ta’lim sohasidagi

5340600 – «Moliya»

5340700 – «Bank ishi»

5340800 – «Soliq va soliqqa tortish»

**5340900 – «Buxgalteriya hisobi va audit» (bakalavriat ta’lim yo’nalishlari
uchun).**

**«O'zbek tili» o'quv qo'llanma – (N.Husanov, S.Shokirova, K.Shayxova)
Toshkent Moliya instituti, 2005 – 108 bet.**

«O'zbek tili» - iqtisodiyot oliy o'quv yurtlarinig umumiy guruh talabalariga mo'ljallangan o'quv adabiyotidir. Qo'llanmada yangi o'zbek alifbosi, uning imlo qoidalari birinchi marta umumiy guruh talabalariga mo'ljallab berilgan. Shuningdek o'zbek tilini bilmaydigan talabalarning imkoniyatini hisobga olgan holda nutq tovushlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Qo'llanmada mavzular o'ziga xos tarzda aks etgan: nutq tovushlari, grammatika, mashqlar, matnlar va topshiriqlar, test savollari, lug'at.

O'quv qo'llanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi oliy o'quvyurtlararo ilmiy uslubiy kengash yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

2005 y. «14» aprel

Taqrizchilar:

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent O'.Lafasov
katta o'qituvchi G.Aliyeva**

Toshkent Moliya instituti, 2005

SO‘ZBOSHI

So‘ngi yillarda oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida davlat tili -o‘zbek tilini o‘qish-o‘rganish, o‘qitish ishlari qizg‘in tus oldi.

Shunga asosan, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida umumiy guruhlarida o‘zbek tili o‘qitish bo‘yicha namumaviy, ishchi-o‘quv dasturlari ishlab chiqildi.

Mazkur qo‘llanma turli yillar davomida Toshkent Moliya instituti umumiy guruhlarida kuzatilgan, o‘rganilgan, qo‘llanilgan tajribalar asosida yangi o‘zbek alifbosi yaratildi.

Talabalarning o‘zbek tilini o‘zlashtirishi oson bo‘lishi uchun ayrim o‘rinlarda o‘zbek tilini rus tili grammatikasiga solishtirishga harakat qilindi.

O‘zbek va rus tillarining fonetik, morfologik, sintaktik tizimidagi ayrim grammatik hodisalar ikki tilda ham mavjud. Lekin bu hodisalar ifodalanishi, ma‘nosi va boshqa xususiyatlari bilan o‘ziga xos jihatlarga ega.

Grammatik bilimni mustahkamlash maqsadida mavzuga oid mashqlar berildi. Shuningdek, grammatik kategoriya sifatida mavjud holatlarni yoritishga va bu o‘ziga xoslikning sababini ochishga ham alohida e‘tibor qaratildi. Qo‘llanmada o‘zbek tilining uslubiy xususiyatlari, nutq madaniyati va iqtisodiy terminologiyaga ham o‘rin ajratildi. Qo‘llanmada materiallar uzviy bog‘liqlikda va ketma-ketlikda berildi. Matnlar oddiylikdan murakkablikka, umumiylikdan ixtisoslikka asoslangan holda yoritildi. Bo‘lajak iqtisodchilar ixtisosligiga mos so‘z va terminlarga, matnlar va topshiriqlarga ko‘proq o‘rin ajratildi. Qo‘llanmadagi test savollari va lug‘at talabalarning mustaqil bilimini oshirishga va mustahkamlashga yordam beradi.

LOTIN YOZUVIGA ASOSLANGAN O'ZBEK ALIFBOSI

Tovush va harf munosabati

Fonetika tilshunoslikning nutq tovushlari tizimini o'rgatadigan bo'limidir. Bu bo'limda tovushlarning hosil bo'lish va talaffuz xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Fonetika – chast (otdel) yazikoznaniya, ishchuchashchayushchaya zvukovuyu sistemu slov. Ona rassmatrivaet osobennost obrazovaniya i proiznoshenie zvukov rechiyu

Yangi o'zbek alifbosida 29 ta tovush (a, b, d, e, f, g, h, i, j, k, l, m, n, o, p, q, r, s, t, u, v, x, y, z, o', g', sh, ch, ng) va bitta belgi (') – tutuq belgisi mavjud.

Rus alfavitidan farqli o'laroq, o'zbek alfavitida o'zbek tovushlarining o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etuvchi o', q, g', h tovushlari mavjud. Rus alfavitidagi shch, i, s, ts, , tovushlari esa yangi lotin grafikasiga asoslangan o'zbek alifbosida yo'q.

O'zbek tili alifbosi oltita unli tovush: a, o, u, o', i, e va quyidagi undosh tovushlar - b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, g, s, t, v, x, z, g', sh, ch, ng va (') tutuq belgidan iborat.

V otliche ot russkogo alfavita v uzbekskom yazike imeyutsya bukvi o', q, g', h pridayushchie spetsificheskie uzbekskie zvuki i otsutstvuyut bukvi shch, i, s, ts, . V zvukovoy strukture uzbekskogo yazika imeetsya shest glasnix bukv: a, o, u, o', i, e.

Soglasnie zvuki uzbekskogo yazika sostoyat iz sleduyushchix zvukov: b, d, f, g, h, j, k, l, m, n, p, q, g, s, t, v, x, z, g', sh, ch, ng va (').

YANGI ALIFBO

1993 yil 2 sentabrda O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida» Qonuni qabul qilindi. 1995 yil 6 mayda ushbu Qonunga qisman o‘zgartirishlar kiritildi va alifbo 26 ta harf hamda 3 ta harflar birikmasidan iborat qilib belgilandi.

1993 yil 2 sentabrda qabul qilinib, 1995 yil 6 mayda o‘zgarishlar kiritilgan o‘zbek alifbosi.

Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi
Aa	Aa	a	Qq	Qq	qe
Bb	Bb	be	Rr	Rr	er
Dd	Dd	de	Ss	Ss	es
Ee	Ee	e	Tt	Tt	te
Ff	Ff	ef	Uu	Uu	u
Gg	Gg	ge	Vv	Vv	ve
Hh	Hh	he	Xx	Xx	xe
Ii	Ii	i	Yy	Yy	ye
Jj	Jj	je	Zz	Zz	ze
Kk	Kk	ke	O‘ o‘	O‘ o‘	o‘
Ll	Ll	el	G‘g‘	G‘g‘	g‘e
Mm	Mm	em	Sh sh	Sh sh	she
Nn	Nn	en	Ch ch	Ch ch	che
Oo	Oo	o	Ng ng	Ng ng	nge
Pp	Pp	pe			

O‘zbek tilidagi unli tovushlar tavsifi **(xarakteristika glasnix fonem uzbekskoy-latinskoy azbuki)**

“A” unli tovushi rus tilidagi “a” dan yumshoqroq aytiladi; aytilishi jihatidan rus tilidagi “a” tovushiga o‘xshash bo‘lib, nahor, savol, zavol, javob, savob, bahor kabi so‘zlarda undosh ta‘sirida “o” ga moyilroq talaffuz etiladigan tovush o‘rnida va muomala, munozara, muhokama kabi so‘zlarning ikkinchi bo‘g‘iniga o‘xshash talaffuz etiladigan tovushlar o‘rnida yoziladi.

ariza - zayavlenie	hujjat - dokument
Amerika - Amerika	lavozim - doljnost
ijara-arenda	faol - aktiv
vazir - ministr	tamg‘a - kleyma
sana – data	eslatma – napominanie
badal – vzos	

Звук “а” переднеязычный, нижнеширокий, нелабиализованный, в некоторых словах в устной речи произносится как буква “о” shamol - ветер, bahor — весна.

Aytsam tilim kuyadi, aytmasam — dilim.

(analogiya poslovitsi: sidno skazat, a grex - utait.)

Arra ekkan arpa olar, bugdoy ekkan bug‘doy olar. (yachmen poseesh - yachmen pojnyosh, pshenitsu poseesh - pshenitsu pojnyosh.)

Axtargan topar — kto ishchet, tot naydyot.

Aql bozorda sotilmas — um ne prodayotsya na bazare.

Oo-Oo tovushi. Bu harf kirill va lotin yozuvida bir xil ko‘rinishga ega. Katta “O” harfi keyingi harfga o‘zining pastki qismidan, kichik “o” harfi yuqori qismidan tutashtiriladi: O O o o

Гласный звук “О”-заднеязычный не шипящий лабиализованный

Uu-Uu tovushi. Bu harflarning katta va kichik harflarining har ikkalasi ham pastki tutash qismidan tutashtiriladi: U U u u

Glasniy zvuk “U” proiznositsya bolee kratko, chem russkiy “U”, naprimer: mustaqil, guruh, ulush.

O‘o‘-O‘o‘ tovushi. Bu harf “o” harfi ko‘rinishiga ega bo‘lib, uning yuqori o‘ng tomoniga o‘tish belgisi teskari holatdagi vergul (‘) shaklida qo‘yiladi. Bu harf katta “O” va kichik “o” harflari singari tutashtiriladi: O’ O’ o’ o’

O‘zbek, o‘ta muhim, o‘lcham, o‘n, o‘ttiz, o‘simlik, to‘qson do‘ppi, noo‘rin, gulko‘rpa, ko‘paytuvchi kabi so‘zlarda orqa qator o‘rta-keng unlini ifodalash uchun yoziladi.

Glasniy zvuk “O” pri proiznoshenii gubi neskolko okruglyayutsya i vidvigayutsya vpered, po svoemu proiznosheniyu priblijaetsya k russkomu udarnomu “O”,
naprimer: o‘zbek, o‘simlik, to‘lov.

“E e” tovushi “E e”

Yangi o‘zbek alifbosidagi “e” tovushi rus tilidagi “e” tovushiga o‘xshab talaffuz etiladi.

Glasniy zvuk “e” sootvetstvuet russkomu zvuku “e”

elchi - posol	atelye - atele
epchil - lovkiy	kure -kupe
ertaga - zavtra	karate - karate
erkin – svobodniy	

“e” tovushi “ue” tovushidan farq qilib yolashmaydi.

Zvuk "e" ne yavlyaetsya etirovannim, chto otlichaet ego ot zvuka (e):

Eg (suprug) - Yeg (zemlya)

El (lyudi, strani) - Yel (veterok)

Eng (camiy) - Yeng (rukav)

Elga xizmat - oliy himmat - slujit strane - visshaya chest.

Egilgan boshni qilich kesmas - povinuyu golovu, mech ne sechet.

Elga qo‘shilsang el bo‘lasan’, eldan ajralsang yer bo‘lasan - budesh s narodom - chelovekom stanesh, ne budesh s narodom, praxom stanesh.

Eringan ikki marta borar - Pomnivshiysya dvajdi platit.

“I i” tovushi

Yangi o‘zbek alifbosidagi “I i” unlisi rus tilidagi “i” tovushiga nisbatan qisqa talaffuz etiladi. Bu - tovush so‘zning qaysi bo‘g‘inida kelishiga bog‘liq.

Glasniy zvuk I (i) proiznositsya bolee kratko, chem russkoe “i”. Proiznoshenie etogo glasnogo zvuka zavisit ot ego mestopolojeniya.

So‘z boshida yumshoq va cho‘ziq talaffuz etiladi.

ijara - arenda	ibrat – nazvanie, primer
ilhom – vdoxnovenie	intizom - distsiplina
ilm – nauka	adabiy - literaturniy
ijod – tvorchestvo	siyosiy – politicheskij

Chuqur til orqa q, g, h tovushlari bilan yonma - yon kelsa “i” unlisi qisqa va qattiq talaffuz etiladi.

Mejdu soglasnimi, posle zadneyazichnix q, g, h zvuk “i” proiznositsya tverdo, korotko.

bilim – znanie	g‘irrom - nechestniy
izlovchi - iskatel	tanqidchi - kritik
dil – dusha	tanqislik - nedostatok
xodim - cotrudnik	qirq - sorok
qir – vozvishennost	xirmon - xirman
qiz - devochka	xira - tuskliy
g‘isht - kirpich	xiyobon – alleya

Inson-aziz, yashamoq-laziz – Chelovek–dorog, a jit naslajdenie.

Ilmi yo‘qning, ko‘zi yumuq – U neucha glaza nezryachi.

Intizomli lashkar engilmas–Distsiplinirovannoe voysko nepobedimo.

Ip qancha uzun bo‘lmasin, baribir uchi topiladi – Kak bi ne bila dlina nitka, a konchik vsyo ravno naydyotsya.

Zapomnite:

iqtisodiyot - ekonomika
iqtisodiy taraqqiyot – ekonomicheskoe razvitie
iqtisodiy ahvol – ekonomicheskoe polojenie
iqtisodiy tanglik – ekonomicheskij krizis
iqtisodiy masalalar – ekonomicheskie zadachi
iqtisodiy sharoit - ekonomicheskie usloviya
iqtisodiy soha – ekonomicheskaya oblast
iqtisodchi – ekonomist

**O‘zbek tilidagi undosh tovushlar tavsifi
(xarakteristika soglasnix fonem uzbekskoy-latinskoy azbuki)**

Soglasnie zvuki.

V uzbekskom yazike 23 soglasnix zvuka, v chislo kotorix vxodyat 5 zvukov, ne imeyushchix ekvivalentov v russkom yazike r, q, h, dj, ng.

Soglasniy zvuk “q” - glubokozadneyazichniy (chuqur til orqa) blizkiy k russkomu “k”.

E’tibor bering:

Qiymat – stoimost
Haqiqiy qiymat – deystvitelnaya stoimost
Qo‘shimcha qiymati – pribavochnaya stoimost
Iste’mol qiymati - potrebitelskaya stoimost
Garov qiymati - zalogovaya stoimost
Yalpi qiymat - valovaya stoimost
Almashuv qiymati - menovaya stoimost
Kun - den
Kun ora – cherez den

Kun bo‘yi – ves den
Kundan - kunga – izo dnya v den
O‘tgan kuni - pozavchera
Kun – jite, sushchestvovanie
Kun ko‘rmoq – jit, sushchestvovat
Kun bermaslik – ne davat jit
Kuni bitdi – nastupayut poslednie dni jizni

1. Qiymat - stoimost, qiyma - farsh, qimmat - dorogoy.
2. Qism - chast, qisim – gorst, gorstka.

Soglasniy zvuk g‘-bolee glubokiy, chem russkiy “G”, skolzit mejdu osnovaniem yazika i nyoba. Naprimer: g‘ayrat (energiya), g‘uncha (buton), g‘alaba (pobeda), g‘am (gore), g‘ildirak (koleso).

Soglasniy zvuk “x” yavlyaetsya gortanim, myagko skolzyashchim. Proiznositsya s lyogkim shumom.

Zvuk “h” v otlichii ot zvuka “x” yavlyaetsya glubokozadneyazichnim, gluxim, o‘rikativnim.

xat - pismo	hayot - jizn
xalq – narod	haykal – pamyatnik
xabar – vest	harakat - dvijenie

E‘tibor bering:

Hurmat (izzat) - uvajenie

Hurmatga sazovor bo‘lmoq – zaslujit uvajenie

Chuqur hurmat – glubokoe uvajenie

U hurmatga ega – On polzuetsya uvajeniem.

Ota - onaga izzat - hurmatda bo‘lish kerak – K roditelyam nujno otnositsya s uvajeniem.

Hisob - schyot

Ochiq hisobi – otkritiy schyot

Shaxsiy hisob – litsevoy schyot

Joriy hisob – tekushchiy schyot

Hisobga olish – vzyat na uchyot

Hisobdorlik – podotchyotnost

Hisobchilik - schetovodstvo

Hisobchi - schetovod

Rus va o‘zbek tillari undoshlarining ba‘zi farqli tomonlari:

1. O‘zbek tilida bo‘g‘iz undoshi (gortanniy soglasniy zvuk) mavjud, bunday tovush rus tilida yo‘q. O‘zbek tili undoshlarini hosil etishda og‘iz va burun bo‘shliqlarigina (polost rta i nosa) emas, balki bo‘g‘iz usti bo‘shlig‘i (nadgortannaya polost) ham ishtirok etadi.

2. Rus va o'zbek tillarining lab undoshlarida farqlanish quyidagicha. Rus tilida v, f undoshlari asli lab-tish undoshlar, o'zbek tilida esa bular – lab-lab (bilobial) undoshi, lekin keyingi yillarda bu o'zbek tovushlarining talaffuzida o'zgarish bo'lmoqda, bu hodisa talaffuzning qulayligi bilan izohlanadi.

3. Til tovushlari (yazichnie soglasnie) ichida keskin farq til orqali undoshlarida mavjud: rus tilida ikkita sayoz til orqa undoshi bor bo'lib, (k, g), o'zbek tilida bunday undoshlar uchta (k, g, o');

4. Rus va o'zbek tillari undoshlarining boshqa farqlarida yana biri og'zaki nutqi tovush ozgarishlariga turlicha uchraydi.

Ko'rinadiki, o'zbek tili undoshlarini hosil etishda tilning orqa qismidan samarali foydalaniladi.

Ng, sh, ch – harfiy birikmalar

Soglasniy zvuk “ng” - zadneyazichniy sonor (zvuchnost) nosovoy zvuk.

V proiznoshenii eto nedelimoe sochetanie dvux bukv “n” i “g”, kotoroe pri perenose ne razdelyaetsya:

O'ng – prava

Tong – zarya

Tenglik – ravenstvo

Soglasniy zvuk “ts” proiznositsya tverdo. Upotreblyaetsya v zaimstvovannix slovax.

Etot zvuk otsutstvuet v uzbekskom yazike, no v inoyazichnix slovax on upotreblyaetsya.

1. Mejdum dvumya glasnimi bukvami pishetsya “ts”: konstitutsiya, dotsent, ofitser.

2. Posle soglasnoy bukvi, v nachale slov, v kontse slov, a takje posle pristavok pishetsya “s”: aksioner, sentner, abzas, kvars.

V inoyazichnix slovax sochetanie bukv “sts” pishetsya “ss” ssenariy, Inssenirovka.

Soglasniy zvuk “j” peredneyazichniy, shumniy, zvonkiy, smeshanni.

Eto ao‘o‘rikativniy zvuk, sochetayushchiy v sebe dva zvuka “d+j” .

Jon - dusha	jahl - gnev
Juda - ochen	jun - sherst
Jadval - tablitsa	juft – para

Tutuq belgisi (‘)

Razdelitelniy tverdiy znak upotrebyaetsya v slovox, zaimstvovannix iz arabskogo yazika dlya dlitelnogo proiznosheniya glasnix zvukov i nachalnix slogax:

Ra‘no, a‘lo, ma‘lum, ma‘no, ma‘rifat, ta‘lim, ta‘zim, ma‘qul, ma‘lumot, mas‘ul, ta‘kid, ta‘rif.

Egalik va kelishik qo‘shimchalarining yozilishi (kategoriya prinadlejnosti)

1. Egalik qo‘shimchalari qarashlilik munosabatini ifodalaydi. Ular predmetning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini bildiradi va egalik qo‘shimchalari deb ataladi.

Birinchi va ikkinchi shaxs egalik qo‘shimchalari hamma vaqt olmosh bilan otni bog‘lab keladi: mening maskanim kabi. Uchinchi shaxs olmoshni ham, otni ham ot bilan bog‘laydi: daraxtning soyasi kabi.

Q yoki **k** bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan, **q** tovushi **g‘** tarzida, **k** esa **g** tarzida aytiladi va shunday yoziladi: o‘rtoq - o‘rtogim, qishloq - qishlogim, yurak - yuragim, bilak - bilagim.

So‘ngi yopiq bo‘g‘inida **i** yoki **u** unlisi bo‘lgan ba‘zi so‘zlar egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda oxirgi (yopiq) bo‘g‘indagi **i** yoki **u** tovushi talaffuz etilmaydi va yozilmaydi: o‘rin - o‘rnim, singil - singlim, burin - burni, og‘iz - ogzi.

V uzbekskom yazike prityajatelnie affiksi virajayut prinadlejnost opredelyonnogo predmeta tomu ili inomu litsu ili predmetu, naprimer: o‘rtoq (tovarishch) – o‘rtog‘im (moy tovarishch) i dr.

V strukture russkogo yazika prinadlejnost virajaetsya osobimi grammaticheskimi kategoriyami.

Kogda osnova sushchestvitelnix okanchivaetsya na soglasniy k ili q, to pri pribavlenii k ney prityajatelnix affiksov konechniy q perexodit v g‘, a k v g: yurak – yuragim, bilak – bilagim, o‘rtoq – o‘rtog‘im, qishloq – qishlog‘im i dr.

Kelishiklar va shaxs - son qo‘shimchalari (kategoriya padeja, litsi i affiksi v uzbekskom yazike)

Kelishik qo‘shimchalari otni otga, otni fe‘lga bog‘lash uchun xizmat qiladi. O‘zbek tilida oltita kelishik bor.

Ayrim kelishik qo‘shimchalari so‘zlarga qo‘shilganda ularda o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin. Masalan, jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi -ga jarangsiz undosh tovush bilan bitgan so‘zlarga qo‘shilganda -ka shaklida eshitiladi, ammo doim -ga

shaklida yoziladi: hisobga, jamiyatga; soʻzlar k tovushi bilan tugagan boʻlsa, joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi -ka shaklida, q tovushi bilan tugasa -qa shaklida qoʻshiladi.

Joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishigi qoʻshimchalari b va d jarangli undoshi bilan tugagan soʻzlarga qoʻshilganda, qator kelgan jarangli undoshlarning jarangsiz jufti talaffuz qilinadi, ammo iqtisodda, daromad kabi yoziladi.

Fe'llarning tuslanishi va zamon kategoriyasi (grammaticheskie kategorii glagola)

Oʻzbek tilida fe'lning quyidagi kategoriyalari bor: 1) nisbat kategoriyasi, 2) boʻlishli-boʻlishsizlik kategoriyasi, 3) mayl kategoriyasi, 4) zamon kategoriyasi, 5)shaxs-son kategoriyasi.

Oʻtgan zamon fe'llari harakatning nutq vaqtigacha, nutq vaqtidan oldin bajarilishini bildiradi va uning shakllari fe'lga -di, -gan, -(i)b affikslaridan birini qoʻshib, uni shaxs-son bilan tushlash orqali hosil qilinadi: bajardim, bajargan, bajaribdi.

Hozirgi zamon fe'li harakatning nutq vaqtida boʻlayotganini, davom etayotganini, tugamaganligini bildiradi. Bu ma'no hozirgi zamon fe'lining -yap, -moqda, -yotir affikslari bilan yasaluvchi shakllari, shuningdek, hozirgi-kelasi zamon fe'l shakli bilan ifodalanadi. Masalan, bajaryapti, bajarmoqda, bajarayotir kabi.

Oʻzbek tilida harakatning nutq vaqtidan keyin boʻlishi, ya'ni kelasi zamon ma'nosi -moqchi affiksli sifatdoshni shaxs-son bilan tushlash orqali, shuningdek, hozirgi-kelasi zamon fe'li orqali ifodalanadi: bajarmoqchi kabi.

Fe'llarda shaxs-son kategoriyasi

Shaxs-son kategoriyasi harakatning bajaruvchisi uch shaxsdan biriga oidligi, shu bilan birga shaxsning bir yoki ko'p ekani ma'nosini bildiradi.

Hozirgi oʻzbek tilida shaxs-son kategoriyasining quyidagi turlari bor:

shaxs	birlik	ko'plik
I	tasdiqladi+m	tasdiqladi+k
II	tasdiqladi+ng	tasdiqladi+ngiz
III	tasdiqladi	tasdiqladi+lar

Gap. Gapning ifoda va maqsadiga ko'ra turlari (Predlojenie. Tipi predlojeniy po tseli viskazivaniya)

Gap ma'no tomondan o'zaro bog'langan so'zlarning birikuvidan hosil bo'ladi va tugal fikrni anglatadi.

Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra uch xil bo'ladi: darak gap, so'roq gap va buyruq gaplar.

His-hayajon mazmunini bildiruvchi gaplar esa undov gap deb yuritiladi.

Qo'shma gap (Slojnoe predlojenie)

Ikki va undan ortiq gaplarning mazmun va ohangga ko'ra birikuvidan tashkil topgan gaplar qo'shma gap deyiladi.

Qo'shma gap tarkibiy qismlarining mazmunan o'zaro munosabati, tuzilishi va birikishiga ko'ra uch turli bo'ladi: bog'langan qo'shma gaplar, ergash gapli qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Ergash gapli qo'shma gaplar (Slojnopodchinnyonnoe predlojenie)

Ergashgan qo'shma gaplar teng huquqli bo'lmagan sodda gaplardan tashkil topadi. Bu gapning birinchi qismi ergash gap, ikkinchi qismi esa bosh gapdir.

Ergash gapli qo'shma gapning turlari quyidagicha:

1. Ega ergash gapli qo'shma gap.
2. Kesim ergash gapli qo'shma gap.
3. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap.
4. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
5. Hol ergash gapli qo'shma gap.

Ega ergash gap bosh gapdagi egani, kesim ergash gap bosh gapdagi kesimni, aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi aniqlovchini, to'ldiruvchi ergash gap bosh gapdagi to'ldiruvchini, hol ergash gap bosh gapdagi holni izohlaydi. Qo'shma gap qismlarining bir-biriga ergashish vositalari har xildir.

Hol ergash gapli qo'shma gap o'z navbatida sakkizga bolinadi:

1. O'rin ergash gapli qo'shma gap-qayerda, shu yerda, -sa
2. Payt ergash gapli qo'shma gap- -gach
3. Ravish ergash gapli qo'shma gap- -b, (-ib)
4. Maqsad ergash gapli qo'shma gap- -sin, uchun
5. Sabab ergash gapli qo'shma gap-chunki
6. Natija ergash gapli qo'shma gap-shunday, -ki, natijada
7. Shart ergash gapli qo'shma gap- -sa
8. To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap- sa, ham

Bog'langan va bog'lovchisiz bog'langan qo'shma gaplar

Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir-biri bilan biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi va inkor munosabatlarini ifodalovchi teng bog'lovchili vazifasida keluvchi-da, -u, (-yu) yuklamalari vositasida bog'lanadi.

Bog'langan qo'shma gaplarda biriktiruv, zidlov, ayiruv va inkor munosabatlari ifodalangan bo'ladi.

Biriktiruvchi bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar-va, ham, (hamda), bog'lovchilari bog'lovchi vazifasida keluvchi -da, -u, (-yu), yuklamalari qo'shma gap qismlarini biriktirib bog'laydi. Masalan: Bugun ertalab sovuq bo'ldi va yomg'ir yog'di. O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishdi-yu, o'zbek tiliga-Davlat maqomi berildi.

Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplarda sodda gaplar mazmunan bir-biriga zid bo'ladi yoki voqea va hodisalar qiyoslanadi. Bunday bog'langan qo'shma gap qismlari ammo, lekin, biroq kabi bog'lovchilar va shu bog'lovchilar o'rnida qo'llaniladigan -u, (-yu), -da yuklamalari orqali bog'lanadi. Masalan: Havo bulut bo'ldi, biroq yomg'ir yog'madi. Talaba berilgan vazifani bajardi-yu, o'qituvchi qanoatlanmadi.

Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar ketma-ket yuzaga keladigan yoki almashinib turadigan ikki va undan ortiq voqea-hodisa, harakatni ifodalaydi.

Goh, ba'zan, dam, yo, xoh, bir kabi bog'lovchilar qo'shma gap qismlarini ayirib, bog'lash uchun ishlatiladi. Ular takrorlanib qo'llaniladi. Ayiruv bog'lovchilar har bir qism boshida takrorlanib qo'llanadi, takrorlangan keyingi bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi.

Inkor bog'lovchili qo'shma gaplar inkor bog'lovchisi inkor mazmunini ifodalovchi ikki va undan ortiq sodda gaplarni bog'lab keladi. Bu bog'lovchi, ayiruvchi bog'lovchilar kabi har bir qism boshida takrorlanib qo'llanadi. Takrorlangan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: U goh kulardi, goh jahli chiqardi. Kuzda goh kunlar isib ketadi, goh yomgir yog'adi.

Adabiy til uslublari **(Stil literaturnogo yazika)**

Olimlar, yozuvchilar o'z ilmiy yoki badiiy asarlarida adabiy til vositalaridan turlicha foydalanadilar. Ilmiy asarda ilmiy terminlar, badiiy asarda esa tasviriy, ta'siriy vositalar ko'proq qo'llanadi.

Demak, adabiy tilda bir – biridan farq qiladigan uslublar bo'ladi.

Ilmiy uslub. Fan va texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi.

Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy terminlaridan foydalaniladi.

Masalan: Iqtisodiyotda kredit, moliya, pul, sug'urta, narx, tannarx, hisob, taftish, aylanma kabi terminlar ishlatiladi.

Rasmiy uslub. Hukumat tomonidan chiqarilgan qarorlar, qonunlar, xalqaro hujjatlar rasmiy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, tarjimaiy hol, e'lon, hisobot, bildirishnoma kabi hujjatlar rasmiy uslubda rasmiylashtiriladi.

Bunday uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq va barcha uchun tushunarli qilib tuziladi.

Rasmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. So'zlar o'z ma'nosida qo'llanadigan, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi.

Rasmiy uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, farmoyish, ko'rsatmalarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi.

Nutq madaniyati **(Kultura rechi)**

Yuqori malakali mutaxassis yuqori darajada nutq madaniyatiga, muomala madaniyatiga ega bo'lishi kerak. Nutq madaniyati nima? Nutq to'g'ri, aniq va yoqimli bo'lishi lozim. Nutq qanchalik to'g'ri va aniq bo'lsa, u shunchalik tushunarli bo'ladi, nutq qanchalik yoqimli va ifodali bo'lsa, u tinglovchiga shunchalik kuchli ta'sir etadi.

Nutq madaniyati deganda mantiqiy izchillikka va adabiy til normalariga rioya qilgan holda to'g'ri, aniq va yoqimli so'zlash uchun til boyliklaridan mazmunga mos zarur so'zni tanlay olish, so'zni o'rinsiz takrorlamaslik, uslub birligini saqlash, nutqning ta'sirchan bo'lishini ta'minlash lozim. Nutqda mantiqiy izchillikka va adabiy til me'yorlariga rioya qilish kerak. Og'zaki nutqda orfoepiya, ya'ni talaffuzga, yozma nutqda esa imlo qoidalariga rioya qilish maqsadga muvofiqdir.

Nutq odobi insonning umumiy axloqini belgilovchi asosiy mezondir. O'rta Osiyoda axloqiy tarbiya o'z an'alariga egadir. Axloq haqidagi ibratli fikrlar qadimgi turkiy yodnomalarda, buyuk allomalarning asarlarida va boshqa yozma yodgorliklarda bizgacha etib kelgan. Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, unung ko'ngligamas, adabiy normadagi ifodalar bilan etkazish tushuniladi. Nutqiy muomala salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Agar salomlashish quruq, iltifotsiz bo'lsa, keyingi suhbatga salbiy ta'sir etishi mumkin. Odatiy an'alarimizga ko'ra, «Assalomu alaykum»ning javobi «Valaykum assalom»dan iborat. Yetuk kishilarga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlatiladigan «xayr, sog' bo'ling», «xayr, ko'rishguncha», «xayr omonlikda ko'rishaylik» kabi ta'sirchan iboralar mavjud. Ulardan o'rinli foydalana bilish lozim. Madaniyatli kishilar o'z aybini bo'yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so'rash o'z g'ururini erga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir.

Topshiriq.

1. Nutq odobi haqida allomalar fikrini bayon qiling.
2. Nutq madaniyati nima?
3. Muomala madaniyati haqida fikringizni bayon eting.

MASHQLAR

1–mashq. “A” tovushiga e’tibor berib, quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini o‘qing:

Abadiy (vechniy), alanga (plama), lavozim (doljnost), afsus (sojalenie), aniq (tochno), agzon (deshyoviy), asl (sushchnost), ahd (peshimost), aub (vina), asg (vek), aql (ym), odob saqlamoq (coblyudat pravila), adolat (spravedlivo), aks sado (otzvuk, exo), aniq vaqt (tochnoe vremya), asosiy masala (osnovnoy vopros), axloqiy masala (nравstvennie voprosi).

2–mashq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va uchinchi bo‘g‘indagi “a” harfiga urg‘u tushgan so‘zlarni yozing:

Asosli (obosnovanniy, argumentirovanniy), azaldan (izdavna), aybdor (vinovnik), aka (brat), adolat (spravedlivost), asal (myod), aksincha (naoborot), tajriba (opit, eksperiment), sayohat (puteshestvie), savdo (torgovlya), nazorat (kontrol), vazifa (nopychenie, obyazannost).

3–mashq. 2-bo‘g‘indagi “a” harfiga urg‘u tushgan so‘zlarni yozing:

Sharq (Vostok), lug‘at (slovar), firma (firma), markaz (tsentr), nafrat (nenavist), muhabbat (lyubov), muttasil (neprevrivy), mutlaqo (absolyutno, bezuslovno), ishxona (uchrejdenie), boshqarma (upravlenie).

4–mashq. “O” tovushining aytilish qoidasiga rioya qilib quyidagi so‘zlarni o‘qing:

1. Ovoz (golos, zvuk), obro‘ (avtoritet, prestij), ob-havo (pogoda), ovchi (oxotnik), odamzod (chelovechestvo), oddiy (obiknovenny), ozoda (chistiy, opryatniy), oy (luna), olam (vsennaya, mir), omad (udacha, uspeh), moliya (finans), boj (nalog), mukofot (premiya),

“O” tovushining talaffuziga e’tibor bering.

1.Oybek o‘zbek adabiyotiga 1926 (bir ming to‘qqiz yuz yigirma oltinchi) yili chop etilgan “Tuyg‘ular” she’riy to‘plami bilan kirib kelgan.

Ham shoir, ham nosir, ham dramaturg Omon Muxtor ko‘p epik asarlar yaratgan.

2.Abdulla Oripov – O‘zbekiston Xalq shoiri.

Odil Yoqubov - O‘zbekiston Xalq yozuvchisi.

Hamid Olimjon talabalik yillaridayoq she’rlar yozgan edi.

5-mashq. O‘qing va so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratib yozing:

Olim (ucheniy), olov (ogon), oltin (zoloto), orzu (mechta), ona (mat), opa (sestra), osmon (nebo), oqim (techenie), oqibat (posledstvie), oshxona (stolovaya), omonat (imushchestvo, dengi), pokiza (chistiy), sotmoq (prodavat), undov (priziv), shoshmoq (speshit), moliyachi (finansist), moddiy (materialniy), sog‘lom (zdoroviy), posbon (storoz, oxrannik).

6-mashq. Quyidagi soʻz birikmalarini koʻchring va yodlang. Oʻzbek tiliga tarjima qiling.

Ovoz - golos

Ovozga qoʻymoq-stavit na golosovanie

Ovoz bermoq-golosovat

Masala ovozga qoʻyildi - Vopros postavlenn na golosovanie

7-mashq. Maqollarni oʻqing va yod oling “U” va “O” tovushlariga ahamiyat bering:

Uzumini ye bogʻini surishtirma - Esh vinograd, a iz kakogo sada ne sprashivay.

Uyning koʻrki-dasturxon - Ukrashenie doma – skatert (s ugoshcheniyami).

Umr – otilgan oʻq - Jizn - eto pushchennaya strela.

Oʻt bilan oʻynashgan - yonar - Ne igray s ognem – sgorish.

Oʻtmas pichoq - qoʻl kesar - I tupoy noj ruku rejet.

Oʻz doʻstim deb sir aytma, doʻstingning ham doʻstlari bor - Ne govori svoyu taynu drugu, u tvoego druga toje est druzya.

8-mashq. Quyidagi soʻzlarni oʻzbek tilining talaffuz qoidalariga rioya qilib oʻqing va yod oling:

Tuhmat (kleveta)

tumor (amulet)

gunoh (grex)

gʻoʻr (zeleniy, nedozreliy)

hukumat (pravitelstvo)

bugun (segodnya)

buloq (rodnik)

buyuk (velikiy)

xushtor (vlyublenniy)

xunuk (nekrasiviy)

xulosa (itog)

qulf (zamok)

toʻkin (izobilie)

toʻlov (oplata)

gʻuncha (buton)

hoʻl (mokriy)

boʻlajak (budushchee)

boʻston (sad)

boʻydoq (xolostyak)

xoʻja (vladelets, xozyain)

xoʻmraymoq (xmuritsya)

xoʻp (ladno)

qoʻl (ruka)

9-mashq. Nuqtalar oʻrniga kerakli “U” yoki “O” harflarini qoʻyib yozing:
T...plam (sbornik), k...y (melodiya), k...zgu (zerkalo), k...ch (sila), s...rat (risunok), s...zsiz (besprekoslovno), n...tq (rech), n...qta (tochka), pul (dengi), p...pisa (ugroza), r...zgʻor (xozyaystvo), r...xsat (razreshenie), r...mol (platok), m...kofot (premiya), m...lk (imushchestvo), m...jiza (chudo), d...kon (lavka), d...gona (podruga), d...nuo (vseleennaya), d...st (drug), j...rʻat (smelost).

10-mashq. Nuqtalar oʻrniga kerakli “U” yoki “O” harflarini qoʻyib koʻchiring:

X...susiy m...lk (chastnaya sobstvennost), x...s...siy t...hfalar (chastnie pojertvovaniya), x...jalik (xozyaystvo), k...rgazma (vistavka), un...mdorlik

(proizvoditelnost), k...p miqdorda (v bolshom kolichestve), s...nggi majlis (poslednee sobranie), t...z...m (stroy), t...liq javob (polniy otvet), t...sqin (prepyatstvie), sh...bhasiz (nesomnenno), ...lchov asbobi (izmeritelniy pribor), soliq t...lovchi (nalogoplatelshchik), t...rt (chetire), t...qqiz (devyat), k...z (osen), k...z (glaz), k...l (ozero), q...l (ruka), t...n (xalat), t...y (svadba).

11–mashq. Quyidagi soʻzlarni koʻchiring va maʼnosini yodlab oling:

1. Uch – tri
Uch yil burun – tri goda tomu nazad
2. Uch – udovletvoritelnaya otsenka
Uning bahosi uch (qoniqarli)–ego otsenka tri (udovletvoritelno)
3. Daraxtning uchi– vershina dereva
Arqonning uchi - konets verevki
Qoʻl uchida - spustya rukava (nexotyia)
4. Uch! – povelitelnoe naklonenie ot glagola “uchmoq” (leti!)

12–mashq.“I” tovushini talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda quyidagi gaplarni oʻqing:

Yirik adabiyotshunos, isteʼdodli dramaturg Izzat Sulton hunarmand oilasida tugildi.
Shoir Mirtemir Tursun oʻgʻli Turkistonning Iqon qishlogida tugʻildi.
Mahmud Xoʻja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sadridin Ayniy - buyuk maʼrifatparvar adiblardandir.
Erkin Vohidov, Abdulla Oripov - zamonamizning koʻzga koʻringan shoirlaridandir.

13–mashq. Berilgan soʻzlar yordamida soʻz birikmalarini tuzing:

Eʼtibor	quvvat
esdalik	niyat
yengil	maydon
ezgu	daftar
elchi	kiyim
elektr	qozonmoq
epchil	gazlama
eski	yigit
ertangi	hayot
erkin	kun
eng	odam
eng muhim	
ehtiyotkor	
eng oldin	

14–mashq. Oʻzbek tiliga tarjima qiling:

Vnimanie, ostorojnost, svoboda, stariy, lovkiiy, strast, potrebnost, prejde vsego, samiy xoroshiy, samiy starshiy, samiy nujniy.

15–mashq. Prochitayte sleduyushchie antonimi i sostavte s nimi slovosochetaniya:

Baho (otsenka) - bebaho (bestsenniy)

Vaqt (vremya) - bevaqt (prejdevremenniy)

Maslahat (sovet) - bemaslahat (ne posovetovavshis)

Tartib (poryadok) - betartib (besporyadok)

Toqat (terpeliviy) - betoqat (neterpeliviy)

16–mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli “ue” yoki “e” tovushini qo‘ying.

Legkiy – ...ngil

Rastvor – ...ritma

Sirota – ...tim

Volya – ...rk

Sedmoy - ...tinch

Peredacha - ...shittirish

Vnimanie - ...tibor

Dostatochno - ...tarli

Vozmojno - ...htimol

Ostorojnost - ...htiyot

Kley - ...lim

Razvyazka - ...chim

Yangi o‘zbek alifbosida “e, yo, yu, ya” tovushlari harfiy birikmalar shaklida yoziladi.

Ye- e

Yo- yo

Yu- yu

Ya- ya

17–mashq. Yo‘lashgan tovushlarni talaffuz qilish talablari asosida o‘qing.

Yoz- leto

yaxshisi- luchshee

Yomg‘ir- dojd

yaxshiyam- xorosho bi

Yorliq- gramota

yuboruvchi- otpravitel

Yoqa- vorotnik

yuguruvchi- begun

Yoqlamoq- zashchishchat

yuqori- poverxnost

Yor- vozlyublenniy

yangi- noviy

Yurt- strana, rodina

yetarli- dostatochno

Yalpoq- ploskiy

yutuq- viigrish

Yana- eshchy

yengil- legkiy

Yaproq- list

yersiz - bezzemelniy

Yetim- sirota

yetakchi- vedushchiy

18-mashq. Tarjimasi qavs ichida berilgan soʻzlardan foydalanib, nuqtalar oʻrniga kerakli tovushlarni (ye, yo, yu, ye) qoʻying.

...rdam puli (denejnaya pomoshch), bu...rtmalar daftari (kniga zakazov), ...k tashish (perevozka), ...rkin raqobat (svobodnaya konkurensiya), sh...rik (partner), dun... savdosi (mirovaya trgovlya), b...pul (besplatno), m...hnat daftarchasi (trudovaya knijka), ...chim (razvyazka),tti (sem), k...lajak (budushchee) r...ja boʻyicha (po planu).

19-mashq. Tarjimasi qavs ichida berilgan soʻzlar hosil bʻolishi uchun nuqtalar oʻrniga kerakli tovushlarni qoʻying.

...kun (itog), ...qa (vorotnik), ...ltiroq (blestyashchiy), ...gʻoch (brevno), ...zmoq (pisat), ...zuvchi (pisatel), oʻquv ...rti (uchebnoe zavedenie), ...ksak unvon (visokoe zvanie).

20-mashq. "k" va "q" tovushlarini taqqoslang:

Qimmat, qarz, qadr, iqtisod, iqbol, iqror, qaram, qaramoq, qaytmoq, chiqim, karam, kifoya, kitob, kishi, kirim, kredit, kayfiyat, koʻtarmoq.

Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit.

Qush uyasida koʻrganini qiladi.

21-mashq. Nuqtalar oʻrniga "g" yoki "g" harfini qoʻyib, soʻzlarni koʻchiring: ...op, i... vo, ... alla, ... azal, ... oya, ... arov, ... azlama, ... uncha, ... alaba.

Kasb – hunar va ilm haqidagi maqollardan namunalar

Baxt belgisi – bilim.

Bilgan oʻqir, bilmagan toʻqir,

Bilimli olim, bilimsiz zolim.

Davlat tugar, bilim tugamas.

Ilmni mehnatsiz egallab boʻlmaydi.

Ota hunari bolaga meros.

Yuz hunarni chala bilgandan

Bir hunarni toʻla bil.

Qunt bilan oʻrgan hunar,

Hunardan rizqing unar.

Hunar zoʻr, hunarsiz zor.

Hunar boʻlsa qoʻlingda,

Non topilar yoʻlingda.

22- mashq. Rus tiliga tarjima qilling:

Moliyaviy hisobga olish, xoʻjalik hisobi, bank hisob - kitobi, qimmatbaho qogozlar hisobi, jamgarma hisobi, daromadlar hisobi.

23-mashq. Quyidagi soʻzlarni taqqoslang va talaffuziga eʼtibor bering:

1. joy, juma, jurnal, garaj, gijda, ajdaho.
2. joʻja, joʻra, joʻhori, janob, xoʻja, goʻja.

24-mashq. Quyidagi soʻzlarni rus tiliga tarjima qiling va shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing:

Jon, jahon, jiyda, tijorat, rivoj, vaj, ajdar.

Eʼtibor bering:

Benaf yashashdan bevaqt oʻlim afzal.

Johil rahbaring boʻlgandan koʻra,
Rahbarsiz oʻtgan yaxshi.

Jabr – zulm va nohaqliklardan uzoqroq boʻl.

Yuqorida berilgan hikmatli soʻzlarning rus tilidagi muqobil variantini toping.

25-mashq. Qoʻyidagi soʻzlarni taqqoslang va talaffuziga eʼtibor bering:

Yangi, koʻngil, dengiz, singil, keling, bordingiz, tong, ming, teng.

26-mashq. Qoʻyidagi soʻzlarni rus tiliga tarjima qiling va shu soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing:

soʻng –	eng -
bodring –	yengil -
ong –	koʻngil-
tinglamoq -	anglamoq-

Eʼtibor bering:

Tiling birla dilingni bir tut.

Koʻngil mahzanining qulfi til va ul mahzanning kaliti soʻz bil.

Soglasnie shchelevie zvuki “sh”, “ch” v otlichii ot podobnix russkix zvukov xarakterizuyutsya otnositelnoy myagkostyu.

chang - pil	shabada - veterok
chaqqon - lovkiy	shartnoma - dogovor
chegara - granitsa	sharoit - uslovie
chashma - rodnik	sharq – vostok

27-mashq. Nuqtalar oʻrniga “sh” va “ch” harfiy birikmalarning mosini qoʻyib koʻchiring:

...iroq, i...imlik, ...imol, ...amol, ... art, ...inor, ...ir...iq, ...ar...ara, ...erik...ilik,
...oʻtal, ...iroy, ...arxpalak, To...kent, huquq...unos, ...anbalik, ...uxrat.

E'tibor bering:

Hayot har doim, har joyda haqiqatni izlashdan boshlanadi; haqiqat izlanmay qo'yilsa hayot ham to'xtaydi.

Jon Reskin

Adashtiruvchi yo'l mingtta bo'lsa, haqiqat yo'li bittadir.

Jan Jak Russo

Yuqorida berilgan hikmatli so'zlarning ma'nosini tushuntirib bering.

28-mashq. Qo'yidagi so'zlardagi "ts", "s" tovushlarining yozilishini eslab qoling:

Konsepsiya, litsenziya, funktsiya, aksiya, operatsiya, sirkul, mototsikl, silindr, induksiya, deduksiya va boshqalar.

29-mashq. Quyidagi so'zlarni o'qing va gaplar tuzing:

1. Selluloid, selluloza, senzura, sentrifuga, siklon, sigeyka, sivilizatsiya, sitata, sitrus, ssenariyachi, kinossinariy muallifi (avtor), silindr, abzas.

2. Repetitsiya, reformatsiya, retsept, retsidiv, evolutsiya, evokuatsiya, informatsiya.

Topshiriq: Nuqtalar o'rniga "s" yoki "ts" harflaridan mosini qo'yib ko'chiring.

Konferen...iya, kon...ert, avia...iya, farma...evtika, ...entner, ...elluloza, de...imetr, ...ilindr, kon...ern, korpora...iya, telestan...iya, Shved...iya, ...irk, lit...ey, milit...iya, asso...ia...iya.

30-mashq. Quyidagi so'zlarni taqqoslang:

sur'at - temp

surat - foto

ta'na - uprekat

tana - tulovishche

qa'la - krepost

qala - sjatie.

31-mashq. Berilgan so'zlarni tarjima qiling va shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Ma'no, a'lo, ra'no, jur'at, mas'ul, ne'mat, na'matak, ya'ni, ma'rifat, ta'sir, ta'min, e'tibor, e'lon.

E'tibor bering:

Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.

A. Navoiy.

Bema'nida ma'ni yo'q.

Xalq maqoli.

32–mashq. Ko‘plik formadagi eganing kesimdagi shaxs – son ko‘rsatkichi bilan shaxs - sonda mosligini va mos kelmasligini ko‘rsating:

Bozor iqtisodiyotida o‘ziga xos qiyinchiliklar, muammolar mavjud. Mustaqillik tufayli yurtimizda iqtisodiy islohotlar jadal davom etmoqda, bozor shakllaridan biri bo‘lgan mehnat ham o‘z qonunlari asosida harakat qiladi. Mamlakatimizning qator oliy o‘quv yurtlarida, ta‘lim masalalarida bozor iqtisodiyoti sharoitida ish yurita oluvchi dastlabki professional boshqaruvchi kadrlar-menedjerlar tayyrlashga e‘tibor berilmoqda. Boshqaruvchilarning muhim vazifasi shundaki, ular ishchi mutaxassislarga yetarli sharoit yaratib berishadi, tashkiliy ishlarga rahbarlik qilishadi.

33–mashq. Egallik qo‘shimchalarining yozilishiga e‘tibor bering:

Respublikamizning bozor munosabatlariga bosqichma – bosqich o‘tishi qishloq xo‘jaligini va undagi kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilishni talab qiladi. Qishloq joylariga turli sohadagi sanoat tarmoqlari kirib kelmoqda. Bularning ko‘pchiligi asosan turli mulkchilik shakllariga asoslangan bo‘lib, asosini qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash, kichik hajmdagi non zavodlari, to‘qimachilik sanoati va aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohalari tashkil qiladi.

34-mashq. Berilgan gaplardagi qaratqich va tushum kelishigidagi so‘zlarni o‘zi bog‘langan so‘z bilan ko‘chiring.

1. Odamning qimmat-qilgan ishi bilan belgilanadi.
2. Ekinni erta ekkan, hosilni erta olar.
3. Dehqonning xazinasini – yer.
4. Talabalarining maqsadi yaxshi bilim olishdir.
5. Yaxshi mutaxassis bo‘lishni istasang, yaxshi o‘qi

35–mashq. Nuqtalar o‘rniga kerakli kelishik qo‘shimchalarini qo‘yib yozing. Neft ... benzin olinadi. Talabalar amaliyot ... qaytdilar. Opam ... xat yozdim. Qizlar ...katta yo‘lda uchratdim. Soliqlar . . . o‘z vaqtida to‘lang. Jamgarmamangizni omonat kassasi . . . qo‘yish orqali ko‘paytirishingiz mumkin. Inson nima . . . erisholmasa o‘sha aziz tuyuladi.

36-mashq. Qavsda berilgan fe‘l kesimlarini hozirgi zamon ko‘rinishida yozing.

1. Men har kuni institutga avtobusda (borish). 2. Darsga do‘stlarim bilan birga (kirish). 3. O‘zim bilan ma‘ruzalar yozish uchun daftarlar (olib borish). 4. Ma‘ruzalarda doim deraza yonidagi birinchi stolda (o‘tirish). 5. O‘zbek tili darsiga o‘zbekcha-ruscha lug‘atini (olib kelish). 6. Lug‘at orqali men matnlarni (tarjima qilish).

37-mashq. Berilgan gaplarda kerakli fe'l kesimlarini qo'yib ko'chiring.

1. Men o'zbek tili bilan bir haftada 2 marta 2. Bizning guruhimizda 10 kishi3. Darsda biz faqat o'zbek tilida4. Domla.... biz javob berdik. 5. Haftasiga ikki marta men texnik vositalar xonasiga shug'ullanish uchunU yerda har bir student magnitafon bilan , matn va dialoglarni , savol-javoblarni plyonkada Uyda esa men har kuni o'qituvchim bilan o'tgan darslarni

38-mashq. Berilgan gaplarni fe'l-kesimlarning hozirgi zamon shaklida yozing.

1. Mening do'stim vaqtdan yaxshi foydalanishni (bilish). 2. U vaqtini to'g'ri (taqsimlash). 3. Yakshanba kuni shahar tashqarisiga dam olishga (ketish). 4. Sen ishingni a'lo darajada (bajarish). 5. Sen seminarga (tayyorlanish), men esa kurs ishini (yozish). 6. Talabalar sinov va imtihonlarga (tayyorlanish).

39-mashq. Qavsda berilgan fe'l kesimlarni o'tgan zamon shaklida yozing.

1. Men yong'ir tagida (muzlab qolish). Jismoniy tarbiya bilan shug'ullanganim uchun (tetiklashish). 3. Har kuni shug'ullanish tufayli ular katta yutuqlarga (erishish). 4. U nonushta tayyorlashga onasiga (ko'maklashish). 5. Gullar so'lib qolmasligi uchun men ularga suv (quyish). 6. Siz o'z kun tartibingizga (o'rganib qolish). 7. U eshikni (qulufdash) va bekatga (yugurish).

40-mashq. Berilgan maqollardagi fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakllarini aniqlang, rus tiliga tarjima qiling.

1. Qo'lga boqma - ko'pga boq.
2. Yiqilgan jangga to'ymas.
3. Sog'liq talasang ko'p yema,
Izzat tilasang - ko'p dema.
4. Befoyda so'zni ko'p aytma
Foydali so'zni ko'p eshitishdan qaytma.
5. Kimki senga do'stlik qilsa,
Do'stligin qadrini unutma.
6. Har yerni qilma orzu,
Har yerda bor tosh - torozu.
7. Yangi do'st orttirsang,
Eskisidan yuz o'girma.
8. Kimki hayotdan olmasa ta'lim,
Unga o'rgatolmas hech bir muallim.

41-mashq. Maqollarni ko'chiring, fe'llarning tagiga chizing hamda qaysi maylda ekanligini ayting:

1. Boshingga qilich kelsa ham to'g'ri gapir.
2. YAxshidan bog' qoladi - yomondan dog'.
3. YAxshilik nur keltirur.
4. Yo'lni bilgan hormaydi.
5. Bugungi ishni ertaga qo'yma.

42-mashq. Quyidagi gaplardagi fe'llarni buyruq-istak mayli shakliga aylantiring:

1. Darsdan keyin kutubxonaga (bormoq).
2. Biz ham birga teatrqa (bormoq).
3. Kitob - bizning do'stimiz. Uni (avaylab asromoq).
4. Xalqimiz urf - odatlarini (hurmat qilmoq).

43-mashq. Fe'llarni shart mayli shaklida qo'llab, gaplarni ko'chiring:

1. Imtixonlarga yaxshi tayyorlandik, yaxshi baho oldik.
2. Havо bulut bo'ldi, yomg'ir yog'di.
3. Yaxshi o'qish - yaxshi mutaxassis bo'lish garovi.
4. Tinchlik bo'lganidagina el ko'tariladi.
5. Bu yilgi reja muddatidan oldin bajariladi.
6. O'z kasbini egallagan talabalar, ishda qiynalmaydilar.

44-mashq. Fe'l zamonlariga e'tibor bergan holda maqollarni ko'chiring.

1. Bugungi ishni ertaga qo'yma. 2. Seni ish yengmasin, sen ishni yeng. 3. Mardni mehnat yengolmaydi. 4. Ish ustasidan qo'rqar. 5. Odobli bola- elga mansur. 6. Oltin o'tda, odam mehnatda bilinadi.

45-mashq. Quyidagi fe'llar ishtirokida gap tuzing fe'l nisbatlarining turini izohlang: tugadi, ezdi, yuvindi, bezandi, o'qitdi, yozdirdi, boshlashdi, bajarishdi, qurildi, mukofotlandi.

46-mashq. Ko'chiring. Fe'l mayllariga e'tibor bering.

1. Yaxshi so'z boldan shirin. 2. Aqlning o'lchovi idrok. 3. Yigit kishiga yetmish hunar oz. 4. Halol mehnat-yaxshi odat, berur senga saodat. 5. Rejali ish buzilmas. 6. Kamtarlik-kishining bezagi.

47-mashq. Quyidagi gaplardagi fe'l zamonlarini aniqlang.

1. Biz o'z tilimiz va Vatanimizni sevamiz. 2. Vatanimiz dahlsizligi yo'lida o'zimizni qurbon qilishga ham tayyormiz. 3. Samarali ishlangiz, o'zingiz ham rohatlanasiz. 4. O'z uyingni o'zing qo'riqla. 5. O'zingdan kattani hurmat, kichikni izzat qilishni o'rgan. 6. Tarbiya berishni har kim o'zidan boshlashi kerak.

48-mashq. Qavsdagi so'zlarni ishlatib, savollarga javob bering. Fe'llarning tuslanishiga e'tibor bering:

1. Nodira kecha qayerda edi? (san'atkorlar bilan uchrashuv).
2. Otabek kecha sport zalida edimi? (mashg'ulot).
3. Dekan nima uchun rektoratga ketdi? (majlis).
4. Ular ertaga institutda qanday tadbirda uchrashadilar? (ilmiy ish himoyasi)
5. Professor Ahmedov hozir qayerda? (ma'ruza)

49–mashq. Quyidagi so‘z birikmalarini o‘zbek tiliga tarjima qiling:

Kajdiy student, vsyakiye knigi, kajdiy iz nas, vse uchastniki, nekotorie prepodavateli, nekotorie iz nix, vse mi.

E’tibor bering:

Mustaqilligimizni yanada mustahkamlash har birimizning burchimizdir. Ba’zi bir kimsalar mustaqilligimizga tahdid qilish maqsadida har qanday pastkashlikka borishdan toymaydidar. Unday g‘alamislarga qarshi har kim imkoniyat darajasida kurash olib borishi maqsadga muvofiqdir.

Hamma - bir kishi uchun,

Bir kishi - hamma uchun.

50–mashq. Berilgan gaplarni, o‘zbek tiliga tarjima qiling.

On eto ot kogo-to uje slisal.

Vse jdali, chto on eshchyo skajet chto-to.

On pereshel na tu storonu ulitsi, kuda-to zashel, kogo to pozval, s kem –to pogovoril.

Ya chto-to videl.

Nikakogo razgovora bit ne mojet.

51-mashq. Savolga harakat sodir bo‘lishiga nima to‘sqinlik qilayotganini ko‘rsatgan holda javob bering.

1. Nima uchun matnni tarjima qilmading? (ruscha-o‘zbekcha lug‘at).2. Nima uchun ma’ruzani yozmading? (daftar) 3. Nima uchun teatrga bormading? (bo‘sh vaqt).4. Nima uchun uy vazifasini bajarmading? (kitob). 5. Nima uchun jismoniy tarbiya darsiga qatnashmading? (sog‘liq)

52-mashq. Savollarga inkor javobini bering.

1. Dekan hozir fakultetdami? 2. Professor O.Karimov kafedradami? 3. Opangiz kechqurun uyda bo‘ladilarmi? 4. Olim ertaga ma’ruzaga qatnashadimi? 5. Farida kutubxonaga bordimi?

53-mashq. O‘qing va rus tiliga tarjima qiling. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini qo‘llashga harakat qiling.

1. Kitob talaba tomonidan o‘qildi. 2. Institutni tugatgandan so‘ng iqtisodchi bo‘laman. 3. Singlim maktabni bitirsa abituriyent bo‘ladi. 4. Dilshodning otasi bankda ishlaydi. 5. Men guruhimning faolligidan faxrlanaman. 6. Mening opam fan nomzodi bo‘ldi. 7. Biz do‘st bo‘lishimiz kerak. 8. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan muzeyga ketdi.

54–mashq. So‘roq yuklamasini to‘g‘ri talaffuz qilishda urg‘u va ohangning ahamiyatiga e’tibor bering:

1. U iqtisodchimi yoki hisobchimi? 2. Sen auditor kasbini tanladingmi? 3. Men boraymi yoki sen kelasanmi? 4. Bu yil maktabni tugatdingmi?

55–mashq. Berilgan ko‘makchilar yordamida yig‘iq va yoyiq sodda gaplar tuzing.

To‘g‘risida, oldida, vaqtida, qoshida, huzurida, keyin, bilan.

56-mashq. O‘qing. Yuklama va modal so‘zlarni topib, ular orasidagi o‘xshash va farqli tomonlarini izohlab bering.

1. Odam qo‘ligina odamga abadiy haykal qo‘yishi mumkin. 2. Menimcha, bu yil qish juda sovuq keladi. 3. Huddi shu payt eshik ohista ochilib, ustoz ko‘rindi. 4. Baxtinga, tez yordam o‘z vaqtida yetib keldi-yu, men omon qoldim. 5. Mana, nihoyat biz orzu qilgan kunlar yetib keldi.

57-mashq. O‘qing. Modal so‘zlarni aniqlab, turini daftaringizga yozing.

1. Darhaqiqat, bugungi sayr umrbod esda qoladigan bo‘ldi. 2. Balki, shu turishda amalga oshishi kerak bo‘lgan yangi-yangi loyihalarning rejasini tuzayotgandir. 3. Bu o‘sha yig‘ilishdagi tanqidiy mulohazalar natijasi edi, albatta. 4. Birinchidan, men hali fikrimkn tugatganim yo‘q, ikkinchidan sizga so‘z berilganda gapirishingiz mumkin. 5. So‘zsiz, uning har bir so‘zi qonun. Shubhasiz, bunday vaziyatda faryodimiz hatto ota-onalarimizning qulog‘iga ham kirmaydi.

58-mashq. Bog‘langan qo‘shma gaplarning ifodalangan munosabatlarinin aniqlang va ko‘chiring.

1. Kuz keldi va mevalar g‘arq pishdi.
2. Yo siz keling, yo men boray.
3. Shu onda qo‘ng‘iroq chalindi-yu, talabalar auditoriyaga kirishdi.
4. Kim birovga chuqur qazisa, unga o‘zi yiqiladi (maqol).
5. Kimki bo‘lsa dilozor, undan elu-yurt bezor.
6. Kimning so‘zi tog‘ri bo‘lsa uning xalq oldida e‘tibori yuqori bo‘ladi.

59-mashq. To‘ldiruvchi va aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gaplarni aniqlang.

1. Shunday kunlar bo‘ladiki, xalqning tarixiy taraqqiyoti uchun bir necha o‘n yillarga arziydi.

2. Kim qudratli bo‘lsa, o‘shanga ergashish kerak.

3. Kimki o‘z ishidan rozi bo‘lsa, uning kayfiyati ham yaxshi bo‘ladi.

4 Siz shuni unutmasingiz kerakki, hech kim birovga o‘ylash, istash, orzu qilishni man eta olmaydi.

5. Umrda shunday tantanalar bo‘ladiki, bunday damlarda kishining qalbi ijodiy gayrat, mehnat zavqi va sevinchli tashvish bilan to‘lib-toshadi.

60-mashq. Payt va o‘rin ergash gapli qo‘shma gapning xususiyatiga ahamiyat bering.

1. Bosqinchilarning aksari tog‘ yo‘liga kirib kelgan mahalda, yerli aholi bu joyni toshlar bilan himoya qilgan.
2. Soy qayoqqa oqsa, tosh ham o‘sha yoqqa dumalaydi.
3. Qaerda tinchlik bo‘lsa, baxt ham o‘sha yerda.
4. Qayrag‘och uchidagi barglarda quyosh nurlari endigina jilva qila boshlaganda, siz kirib keldingiz.

61-mashq. Ega va kesim ergash gapli qo‘shma gaplarni aniqlang, ularning bosh gapga qanday vosita orqali bog‘langanini izohlang

1. Gap shundaki, har qaysi joyning o‘ziga yarasha qonun-qoidasi bor.
2. Yangi gap shuki, dardingizga davo topildi.
3. Gap shundaki, u yigitda hamma narsaga qiziqish bor.
4. Sizga ravshan bo‘ldiki, institutda olgan bilimlarimni o‘z o‘rnida ishga tatbiq eta olayapman.
5. Kimki o‘zining tilsiz do‘stlari uchun g‘am cheksa, u yomon odam bo‘lmaydi.

Qo‘shma gaplardan tuzilgan maqollarni eslab qoling va mazmunini tushunib oling

1. Bilim yo‘q joyda, mardlik ham yo‘q.
2. Ter to‘kib ishlagan joyda, baxt-bu ajoyibot emas.
3. Qayerda tug‘ilgan bo‘lsang, u yerda keraksan
4. To‘g‘ri yo‘l turgan joyda, qiyshiq yo‘ldan yurma
5. Sevgi va murosa bo‘lgan yerda-g‘am yo‘q
6. Ip qayerda bo‘lsa, igna ham o‘sha yerda
7. Qayerda xalq hukmron bo‘lsa, o‘sha yerda g‘alaba va ozodlik barqaror bo‘ladi.

62–mashq. Ko‘chiring, qo‘shma gaplarga e‘tibor bering va rus tiliga tarjima qiling.

Toshkent muhim savdo yo‘llari tutashgan yerda bunyod bo‘lgan. Sharq bilan G‘arb mamlakatlarini bir-biri bilan bog‘lagan tarixiy aloqa yo‘li-Buyuk ipak yo‘li shu yerdan o‘tganligi diqqatga sazovordir.

Toshkentda ham qadimiy madaniyat va me‘moriy yodgorliklar saqlanib qolgan. Ular orasida eng mashhurlari Ko‘kaldosh madrasasi va Shayxontohur maqbarasi bo‘lib, ular XVI asrda barpo etilgan va hozir davlat muhofazasiga olingan.

E'tibor bering:

Tovar. Bu soʻz jonli va jonsiz mol maʼnosida oʻzbek va boshqa turkiy tillarda qadimdan ishlatilgan. Mahmud Qoʻshgʻariyning “Devoni lugʻatit-turk” (XI) asarida xabar berilishicha, tovar oʻgʻuz lahjasida ishlatilgan va tovar formasida boʻlgan.

Turk va ozarbayjon tillarida (dovar) shaklida yuritiladigan bu “tovar” soʻzi rus tiliga XII-XIII asrlarda oʻzlashgan.

Tovarish. Rus tilidagi bu soʻz asli turkiy “tovar” (mol-merek, va ish, turkiycha “oʻrtoq”, “yaqin”, “hamkor”) soʻzidan tashkil topgan va dastlab “savdo qiluvchi oʻrtoq, savdodagi hamkor” maʼnolarini bildirgan. U XIV asrdan ishlatila boshlandi, keyinchalik maʼnosi kengaydi. “Tovarish” soʻzi hamkor, hamdam maʼnolarida ham ishlatila boshlandi.

63–mashq. Berilgan maqollarni yod oling va rus tilidagi muqobil variantini toping:

Nojoʻya oʻyin - sindirar boʻyin.

Shirin soʻz - shakardan shirin.

Bemaza qovunning urugʻi koʻp.

Bola aziz - odobi undan aziz.

Maqsadimiz - aʼlo oʻqish.

64-mashq. Berilgan soʻzlarga qavs ichidagi soʻzlardan mosini qoʻyib, qoshma gap tuzing.

Buyuk, mustaqil, ozod, ahil, mehnatkash, sabrli, obod (vatanimiz, xalqimiz).
Tuzilgan soʻz birikmalaringizni qatnashtirib, toʻrtta gap tuzing. Aniqlovchilarning tagiga chizing.

Ikkita oddiy gapdan qoʻshma gap tuzing

1. Geoximiya ximiyaviy jarayonlarni oʻrganadi. Ushbu jarayonlar Yerda sodir boʻlmoqda.

2. Injener va olimlar koʻp mehnat qildilar. Ular fanga yangilik kiritishni xohlardilar.

MATNLAR

O'ZBEK TILI TARIXIDAN

O'zbek tili-oltoy tillari oilasining turkiy guruhiga kiradi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 24 xil turkiy til bo'lib ularda 39 milliondan ziyod kishi gaplashadi: o'zbeklar, ozarbayjonlar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, uyg'urlar, boshqirdlar, qoraqalpoqlar, tatarlar, oltoy turklari, xakaslar va hokazo.

O'zbek tili XI asrdan mustaqil til sifatida shakllana boshlagan va XIV asrda umumxalq o'zbek adabiy tili vujudga kelgan.

O'zbek adabiy tilining rivojlanishida Alishyer Navoiyning xizmati juda katta. Navoiy o'zining badiiy va ilmiy asarlarida o'zbek tili boy tillardan biri ekanligini amaliy isbotlab, nazariy asoslab bergan: o'zbek tilida ajoyib badiiy asarlar yaratgan, til masalalariga bag'ishlangan "Muhokamat-ul lug'atayn" nomli ilmiy asar yozgan. O'zbek tili asrlar davomida jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib kelmoqda.

- Topshiriq:** 1. Matnni o'qing. Ushbu matn asosida savollar tuzing.
2. Til haqidagi maqollardan ayting va mazmunini tushuntiring.
3. Quyidagi so'zlarning omonimini toping, ma'nolarini ayting va tarjima qiling.
Til, ot, o't, tuz

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI

Mutal (Mutavakkil) Burhonov musiqasi,

Abdulla Oripov so'zi

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,

Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!

Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,

Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQORAT:

Oltin bu vodiylar-jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar ona yurt, mangu bo‘l obod!

NAQORAT:

Oltin bu vodiylar-jon O‘zbekiston!
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Topshiriq:

1. Madhiyani yod oling.
2. Notanish so‘zlar lug‘atini tuzing va tushuntirib bering.

Mustaqillik ahillikdan

Mustaqillik deganim
Bilib qo'y ne ekanin.
Eng avval mustaqillik
Bo'lmoq puxta, ahillik.
Bu xil sifat insonda
Fazilatlar har onda.
Tanib ol haq – huquqing
Saqlagil odob xulqing.
Sevgil ona yurtingni,
Ketakzma labz- burdingni.
Mag'rur tutgil boshingni,
Oldirmagil oshingni
Har jabhada chiniqqil
Bahslarda yengib chiqqil
Gar bo'lsang uddaburon,
Mushkuling ko'char oson.
Mustaqillik – dadillik,
Tenglik ila ahillik.
Ochiq gap ko'pdir sharti.
Eng avvalo bo'l el mardi.

(Po'lat Mo'min)

Topshiriq:

1. She'rni o'qing, tovushlarga e'tibor bering. Yangi so'zlarni yod oling va tarjima qiling.
2. Jabha, labz-burd, mag'rur, fazilat so'zlarining ma'nosini tushuntiring va ular ishitirokida gap tuzing.
3. Gapdagi ajratilgan so'zning sinonimini toping: Kitob - bilim manbai.

MUSTAQIL O'ZBEKISTON

XX asrning oxirida Vatanimiz tarixida yangi davr boshlandi. 1991 yil 31 avgustda respublika Oliy Kengashining navbatdan tashqari 6 sessiyasi Mustaqil O'zbekiston respublikasi tashkil etilganligini e'lon qildi.

1-sentabr - O'zbekiston respublikasining Mustaqillik kuni deb belgilandi. Xalqimizning asriy orzusi, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi ro'yobga chiqdi va siyosiy qaramlikdan qutildi. Dunyo xaritasida yana bitta mustaqil, to'la huquqli, suveren davlat - O'zbekiston respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekiston respublikasining barcha fuqarolari har yili 1-sentabrda o'z yurtining Mustaqillik kunini tantanali ravishda nishonlaydilar.

Bugungi o'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik, boy tarixiga edagir.

Amir Temur, Ulug'bek, Bobur kabi donishmand hukmdorlar hokimiyatni boshqargan zamonlarda o'zbek davlatchiligi yuqori bosqichga ko'tarilgan davr bo'lgan. Bunday buyuk siymolar hukmdorligi davrida ilm-fan, madaniyat, ma'rifat va hunarmandchilik rivojlangan. Bizning ajdodlarimiz butun dunyo taraqqiyotiga asrlar davomida nihoyatda katta hissa qo'shgan. Muqqadas yurtimiz orqali o'tgan Buyuk ipak yo'li esa Osiyo va Yevropadagi xalqlar va mamlakatlarni bir-biriga bog'lab, hozirgi xalqaro hamkorlikning o'sha zamonlardagi timsoli bo'lib xizmat qilgan.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va matn asosida savollar tuzing, so'zlab bering.

2. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib ko'chiring:

A) Respublikamizda mustaqillik bayrami keng ...

B) Olimning asarlari ... tanilgan.

C) ... tarixiy obidalar ko'p.

3. Quyidagi so'zlarning paronimlarini toping:

1. asr –

2. yuvindi -

3. asl –

4. afzal -

DAVLAT BAYROG' I

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ramzi bizning mamlakatimiz hududida ilgari mavjud bo'lgan g'oyat qudratli saltanatlar bayrog'iga xos bo'lgan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda respublikaning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, xalqimizning milliy va madaniy sohalardagi o'zligini ham aks ettiradi. Bayroqdagi havo rang-zangori osmon va musaffo suvning, shuningdek yer va osmondagi hayot manbalarining ramzidir.

Havo rang - Amir Temur davridagi bayroqning asosiy belgisi bo'lgan.

Oq rang-tinchlik va poklik timsolidir. Ma'lumki, yosh mustaqil davlat o'z yo'lida baland-baland dovonlardan oshib o'tishi kerak. Bayrog'imizga bu rang ana shu yo'l musaffo va charog'on bo'lishi uchun yaxshi niyat ramzi sifatida olingan.

Yashil rang-ona tabiatning timsoli. Hozirgi vaqtda butun dunyoda atrof-muhitni muhofaza qilish harakati tobora kengayib bormoqda. Uning ramzi ham yashil rang hisoblanadi.

Qizil hoshiya-har bir tirik jon qon tomirida urib turgan hayotiy kuch, hayot ramzi.

Yarim oy-O'zbekiston xalqining ko'p asrlik an'analarga muvofiq keladi, hilol va yulduzlar musaffo osmonning ramzidir.

Yulduzlar soni-12 ta bo'lib, o'lkamizda qadim vaqtlardan buyon mukammallik timsoli hisoblangan.

Davlat bayrog'i bizning o'tmishimiz, bugungi kunimiz va kelajagimiz ramzidir.

Topshiriq:

1. Matnga savollar tuzing va ularga o'zingiz javob qaytaring.
2. o', i harflarining tagiga chizing va talaffuziga e'tibor bering.

VATAN KABI AZIZ TIMSOL

Mamlakatimiz parlamenti 1992 yil 2 iyulda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonunda Davlat gerbi mustaqilligimiz ramzi ekani huquqiy asosda mustahkamlab qo‘yilishi bilan birga, uning qanday ko‘rinishga egaligi yaqqol ifodalab berilgan.

Davlatimiz gerbida xalqimizning tarixi, buguni va kelajagi o‘z aksini topgan. Unda tog‘lar, daryolar va so‘l tomoni bug‘doy boshloqlaridan, o‘ng tomoni esa chanoqlari qiyg‘os ochilgan go‘za shoxlaridan iborat chambarakka o‘ralgan, gullagan vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turadi.

Gerbning yuqori qismida sakkizburchak, uning ichki qismida yarim oy va yulduz, markazida Humo qushi tasvirlangan. Pastki qismida yurtimiz Davlat bayrog‘ini ifoda etuvchi chambarak tasmaiga “O‘zbekiston” deb yozib qo‘yilgan.

Biz uchun suyuq va buyuk ana shu yorqin tasvirdagi har bir chiziq, har bir rang, har bir belgida muayyan ramziy ma‘nolar mujassam.

Gerbda o‘z ifodasini topgan jannatmonand diyorumiz husn-tarovatiga ishorat etuvchi manzaralar-tog‘, daryo, bug‘doy boshog‘i, go‘za va chanoqlar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo‘lidagi orzu-umidlari ifodasi, quyosh, yarim oy, yulduz- jamiyatimiz jipsligi belgisi, shuningdek, omad, himmat, olijanoblik, erksevarlik va fidoyilik ramzi bo‘lgan afsonaviy Humo qushi- bularning barchasi millatimiz, xalqimiz hayoti, tarixi, ruhiyati va an‘analari bilan chambarchas bog‘liq timsollardir.

Gerbimizda markaziy o‘rin tutuvchi Humo qushi ramzini olib ko‘raylik. Manbalarga qaraganda, xalqimiz Humoni azaldan davlat qushi sifatida tasavvur qilib kelgan. Zaminimizda necha ming yillar ilgari paydo bo‘lgan afsonalarda Humo go‘zal qush qiyofasidagi baxt, taqdir va badavlatlik timsoli hisoblangan.

Shu ma‘noda, O‘zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g‘ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o‘zida mujassamlashtirgan Gerbimiz jonajon Vatanimizning betakror timsoli, o‘ziga xos va o‘ziga mos davlat ramzlaridan biri bo‘lib qolgan bejiz emas.

Davlat gerbi tasviri muhrlarda va davlat idoralari maxsus bosma qog‘ozlarida, rasmiy nashrlarda, qog‘oz va tanga pullarda, qimmatli qog‘oz va obligatsiyalarda, fuqarolik pasportlarida hamda qonunda belgilangan boshqa o‘rinlarda aks ettirilgan.

Mamlakatimizda davlat ramzlari, shu jumladan, Davlat gerbi ham qonun bilan muhofaza qilinadi. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonunda belgilanganidek, O‘zbekiston fuqarolari, shuningdek, O‘zbekistonda istiqomat qiladigan boshqa millat vakillari O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbini hurmat qilishlari shart.

Davlat ramzlariga bo‘lgan munosabatimiz, birinchi galda, shu ramzlar to‘g‘risidagi qonunlarni puxta o‘rganish va ularga so‘zsiz amal qilishimizda yanada yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

Davlat gerbining takrorlanayotgan tasviri, uning katta-kichikligidan qat’i nazar, qonunda tasdiqlangan tasvirga mos bo‘lishi kerak. Bu, o‘z navbatida, Gerbni nafaqat o‘rnatish yoki tasvirini tushirish, balki targ‘ib etish jarayonida ham uni qabul qilingan tasnif asosida to‘g‘ri talqin etishni taqozo qiladi.

O'zini mana shu tabarruk zamin fuqarosi deb bilgan, o'z mamlakati, xalqi bilan cheksiz faxrlangan har bir inson gerbimizni, shu singari boshqa bebaho ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarimiz bo'lgan davlat ramzlarini Vatanimiz kabi aziz va muqaddas deb e'tirof etishi, e'zozlashi tayin.

Hamyurtlarimizning Vatan timsollarini bunday e'zozlashi, Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek, o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, demakdir.

Topshiriq:

Matni o'qing, savollar tuzing, so'zlang. Unli tovushlar talaffuziga e'tibor bering

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TILI HAQIDAGI (YANGI TAHRIRDA) QONUNI 24 TA MODDADAN IBORAT

1-modda. O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili o‘zbek tilidir.

2-modda. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat Konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari-Davlat tilida yuritiladi.

Topshiriq: O‘qing u va o‘ tovushlarining talaffuziga va yozilishiga e‘tibor bering

MUSTAQILLIK ODIMLARI

O‘zbekistonni 150 dan ortiq davlat tan oldi. Ularning ko‘pchiligi bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatildi.

Toshkent shahrida 30 dan ortiq mamlakatlarning elchixonalari, konsulliklari vakolatxonalari va savdo uylari ishlab turibdi.

Bizning davlatimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning tenq huquqli a‘zosisdir.

Respublikamizda 60 dan ortiq oliy o‘quv yurti, shu jumladan 17 ta universitet bor. O‘zbekistonlik 2000 dan ortiq talabalar chet el o‘quv yurtlarida ta‘lim oladilar. Har yili O‘zbekistonlik 200 dan ortiq yosh mutaxassislar va olimlar Angliya, AQSh, Germaniya, Fransiya, Hindiston, Misr va boshqa mamlakatlarning ilmiy va o‘quv markazlarida o‘z ixtisoslari bo‘yicha bilim va malakalarini oshirmoqdalar.

Respublikada 9327 maktab, shu jumladan 134 litsey faoliyat ko‘rsatmoqda, 64 muzey, 7257 kutubxona, 36 teatr ishlab turibdi. Bugungi kunga qadar 64,9 mingga yaqin korxonalar va ob‘ekt davlat tasarrufidan chiqarildi. Shularning 25,9 mingtasi xususiy mulkka o‘tdi, 26,1 mingtasi jamoa, 0,4 mingtasi ijara korxonalariga aylantirildi.

Korxonalarining 2/3 qismi mulkchilikning davlatga qarashli bo‘lmagan shakliga mansub bo‘lib, ularda ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlarning 60 foizi mehnat qiladi va yalpi ijtimoiy mahsulotlarning 53 foizi ishlab chiqariladi.

54 mamlakatga qarashli xorijiy firma, bank va kompaniyalarning vakolatxonalari 166 taga yetdi.

Topshiriq:

1. Matnni o‘qing u va o‘ tovushlarining talaffuziga e‘tibor bering va savollar tuzing.
2. Iqtisodga oid atamalarni toping va yod oling.
3. Gapdagi ajratilgan so‘zning antonimi asosida gap tuzing.

Baxilning bog‘i ko‘karmas.

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

1931-yilda O‘rta Osiyo Davlat universitetining mahalliy xo‘jalik va huquq fakulteti tarkibida O‘rta Osiyo Moliya - iqtisod instituti tashkil etildi (keyinchalik TMI).

1962 yilda TMIga Toshkent Xalq xo‘jaligi instituti nomi berildi (TXXI).

1991 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra Toshkent Xalq xo‘jaligi institutining Moliya-kredit va hisob- iqtisod fakultetlari negizida Toshkent Moliya Instituti tashkil etildi (TMI).

Toshkent Moliya Instituti hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning ijrosini amalga oshira borib bozor iqtisodiyoti sharoitiga mos moliya, bank, soliq, sug‘urta, qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi, audit, kasbiy pedagogik tayyorgarlik kabi ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha bakalavrlar va magistrlar tayyorlaydi.

Institutda kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini ta‘minlovchi modeli ishlab chiqilgan va yo‘lga qo‘yilgan.

Bu model o‘z ichiga quyidagi asosiy bosqichlarni qamrab olgan:

- moliya litseyi;
- soliq litseyi;
- bank kolleji;
- bakalavriatura;
- magistratura;
- malaka oshirish instituti;
- aspirantura;
- doktorantura.

Mutaxassis kadrlar tayyorlash modelini amalga oshirish, ularni hozirgi zamon talablariga va jahon andozalariga mos bo‘lishi uchun institutda 7 ta fakultet, "Soliq tashkilotlari uchun kadrlar tayyorlash markazi" va magistratura bo‘limi hamda 25 ta kafedra faoliyat ko‘rsatmoqda. 350 dan ortiq professor-o‘qituvchilarning 60% foizidan ortiqrog‘i ilmiy unvonlarga ega. Hozirgi kunda institutda ta‘lim olayotgan talabalar soni 5000 dan ortiqdir. O‘quv jarayoniga ilg‘or texnik vositalaridan kompyuterlar, nusxa ko‘chiruvchi apparatlar, proktyesion vositalar kiritilgan va shu asosda o‘qitishning yangi uslublari joriy qilingan.

Institutda xorijiy tillarni o‘rganishga katta e‘tibor qaratilgan. Barcha fakultetlarning o‘quv jarayonlarida zamonaviy texnik vositalar va til o‘qitishning yangi, ilg‘or uslublari keng qo‘llanilmoqda. Bu esa o‘z navbatida institut

talablarining chet el adabiyotlarini o‘rganish hamda ularni chet ellarga yuborish va turdosh universitetlar bilan o‘quv-ilmiy-uslubiy hamkorlik qilish imkoniyatini yaratgan.

Topshiriq:

1. Matnni o‘qing I, e unlilarining talaffuziga e‘tibor bering va savollar tuzing.
2. Siz ta‘lim olayotgan fakultet haqida ma‘lumot bering.
3. “Kasbim – faxrim” mavzusida bog‘lanishli matn tuzing.

Quyidagi iboralarning ma‘nosiga teng keladigan so‘zni toping:

ko‘ngli joyiga tushdi -
xamirdan qil sugurganday -
tilidan bol tomadi –
bir yoqadan bosh chiqarib –
tepa sochi tikka bo‘ldi -

Quyidagi iboralarni eslab qoling.

Iqtisodiy vaziyatning keskinlashuvi – obostrenie ekonomicheskoy situatsii
Iqtisodiyot masalalari bo‘yicha mutaxassis - cpetsialist po problemam
ekonomiki nauki

IQTISODIY BILIMLARNI TARQATISH MARKAZI

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘grisida”gi qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning ijrosini amalga oshirish maqsadida institutda “Iqtisodiy bilimlarni tarqatish markazi” tashkil etilgan.

Markaz tarkibida quyidagi bo‘limlar faoliyat ko‘rsatmoqda:

- komputer - nashr ishlari bo‘limi
- ilmiy - o‘quv axborot texnologiya bo‘limi
- kutubxona
- nashriyot bo‘limi
- bosmaxona

Bu bo‘limlarning faoliyati professor o‘qituvchilar, doktorantlar, aspirantlar va talabalar o‘rtasida yangi iqtisodiy va dunyoviy bilimlarni ommalashtirishga qaratilgan.

Topshiriq:

1. “Ommaviy axborot vositalari” haqidagi fikringizni bayon qiling.
2. Quyidagi so‘zlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.
3. Peredacha, osveshchenie, mestniy, sredstvo.

XALQARO ALOQALAR

Institutda rivojlangan chet el va turdosh universitetlar bilan hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hozirgi kunda AQSh, Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Janubiy Koreya va ko'pgina boshqa mamlakatlarning oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan. Institut professor - o'qituvchilari TESIS, AIREKS, FULBRAYT, SOROS, DAAD, AKSELS kabi dasturlar doirasida ilmiy stajirovka va malaka oshirish kurslarini o'tib kelmoqdalar. Chet el universitetlarining olimlari, har xil dastur mutaxassislari institut o'quv jarayoniga uzluksiz jalb qilinyapti.

Oxirgi 2 yil ichida chet el olimlari bilan hamkorlikda qator darsliklar va qo'llanmalar nashr qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarni chet ellarda ta'lim olishini quvvatlab "Umid" jamg'armasini tuzish to'g'risidagi 1994 yil 7 yanvar 1694-sonli farmonning ijrosi bo'yicha qator amaliy ishlar qilingan. Xususan, iqtidorli yoshlarni izlash va ularni maqsadli tayyorlashga doir uslubiy tavsiyanomalar ishlab chiqilib, bu sohada ijobiy ishlar bajarilyapti. Buning natijasi o'laroq, hozirgi vaqtda ko'plab talabalar chet el oliy o'quv yurtlarida tahsil olishmoqda.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va tarjima qiling. "i" "e" tovushlarning talaffuziga e'tibor bering.
2. Kelgusidagi orzuingiz haqida so'zlab bering.
Madaniyat, aql, odob, axloq, tuz, ayb, e'tibor, e'zoz so'zlaridan -siz, -li sifat yasovchi qo'shimchalar yordamida sifat yasang va ular ishtirokida gap tuzing.
3. Oilangiz haqida ma'lumot bering.

KOMPYUTERLAR TIZIMI

Institutda fanlar bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun yetarli miqdorda kompyuter sinflari xizmat qiladi. Zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan test markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Bu markazda har bir yo'nalishning maxsus fanlaridan talabalarning bilimini reyting tizimi yordamida aniqlash kompyuterlar yordamida amalga oshiriladi. Institutning barcha dekanat va kafedralari zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan.

Xalqaro informatsion resurslardan foydalanish maqsadida institut professor - o'qituvchilari va talabalariga "Elektron pochta" va "Internet" global informatsion tizimlari xizmat ko'rsatmoqda. Institutda masofadan o'qitish shakli ham tashkil qilinyapti.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va savollar tuzing. Unli tovushlarning talaffuziga e'tibor bering
2. Qanday kompyuter turlarini bilasiz? So'zlab bering.
3. Matndagi birlik va ko'plik sonda qo'llanilgan otlarni aniqlang.

ILMIY FAOLIYAT

Toshkent Moliya instituti Markaziy Osiyodagi Moliya, Bank, Soliq va Sug'urta, Buxgalteriya hisobi va Audit sohalari bo'yicha yirik ilmiy markaz hisoblanadi. Institutda "Bozor tizimiga o'tishda iqtisodiyotni tartibga solishning moliya-kredit mexanizmi" mavzusida ilmiy - tadqiqod ishlari olib borilmoqda. Institut olimlari faqat bu mavzu bilan chegaralanmay, balki Davlat fan - texnika dasturida belgilangan 4 ta yo'nalish bo'yicha ham izlanishlar olib bormoqdalar. Bu ishlarni amalga oshirishda yosh iqtisodchi olim va talabalar faol qatnashayaptilar. Institutda "Yosh iqtisodchilar" klubi tashkil qilingan. Iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari Markaziy jurnal, gazeta va ilmiy to'plamlarda doimiy ravishda chop etib boriladi. Bulardan tashqari, jahon va milliy iqtisodiyotining rivojlanishiga doir muammolar yosh olimlar, aspirant va doktorantlar tomonidan ilmiy seminarlarda va konferensiyalarda doimiy ravishda muhokama qilinadi.

Institutning ilmiy va pedagogik salohiyatini oshirishda rivojlangan chet davlatlarning o'quv - ilmiy markazlari bilan o'rnatilgan hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo'lyapti.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va tarjima qiling. Unli tovushlar talaffuziga e'tibor bering
2. Matnda berilgan gaplardagi egalik qo'shimchalarini toping.
3. "Iqtisodchi – faxrli kasb" mavzusida insho yozing.

MOLIYA TARIXIDAN

Moliya fani G'arbda XV -XVI asr o'rtasida paydo bo'lgan bo'lib, O'rta Osiyoda moliya haqida tushuncha berilgan asarni ilk marotaba yaratgan davlat arbobi va shoir Zahiriddin Boburdir (1483 – 1530 y).

Uning iqtisodga oid "Mubayin" asari asosan soliqqa tortishning asosiy me'yori va uning xususiyatlariga bagishlangan.

Moliya atamasi dastlab Bobur asarida qo'llangan. Moliyaga oid yana bir asar – "Temur tuzuqlari"dir. Ushbu kitobda Movaraunnahr davlatida ish yuritish, g'azna, maosh to'lash masalalari, soliq, soliqqa tortish, yer solig'i va boshqa masalalar aks ettirilgan.

Moliya haqida qiziqarli ma'lumotlarni yana Alisher Navoiy, Muqimiy, Zokirjon Furqat asarlarida uchratish mumkin.

XX asrning 20 yillarida iqtisodiyot sohasida moliya muammosi markaziy o'rinni egallagan. 1921 yilda O'zbekiston Respublikasida birinchi pul islohoti amalga oshirilib, o'zining ilk budjeti shakllandi. Birinchi kredit muassasalari tashkil etildi. Jurnallarda moliyaga oid bir qator maqolalar chop etildi. 1922 yilda Y.I.Poslavskiy va T.N.Cherdansev tahriri ostida "O'rta Osiyo iqtisodiy hudud" kitobi yaratildi. 1927 yilda esa X. Xakimxo'jaevning "O'zbekistonning 10 yil ichida moliya sohasidagi erishgan yutuqlari" nomli kitobi chop etildi. Shu davrdan boshlab UODU (SAGU)ning iqtisod fakultetida moliya fani o'quv dasturiga kiritildi, (1931-yilda esa ushbu fakultet O'rta Osiyo moliya-iqtisod instituti sifatida ajralib chiqdi).

1931-40 yillarda O'rta Osiyo moliya iqtisod institutining moliya faniga oid ilmiy to'plamlari nashr etildi.

Urush yillarida boshqa mamlakatlardan bir qator olimlarning evakuatsiya qilinishi moliya sohasining yanada ravnaqiga olib keldi. Ana shunday olimlarning tashabbusi bilan 1943 yilda aspirantura ochildi.

1948-50 yillarda birinchi nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yuzaga keldi. Hozirgi davrda moliya ilmi yangi bosqichlarga ko'tarilmoqda.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va savollar tuzing. Unli va undosh tovushlarning talaffuziga e'tibor bering
2. Savollar asosida so'zlab bering.

SUG'URTA TARIXIDAN

Sugurta tushunchasi pul va kredit tushunchalaridan oldin shakllana boshlagan. Dastlabki jamoa tuzumi davrida har bir oila hayot uchun eng zarur oziq-ovqat zahiralari g'amlash zaruriyatini tushuna boshlaganda, zahiralar yetarli bo'lmasa yoki biror hodisa tufayli qo'shimcha moddiy ne'matlarga ehtiyoj sezilsa, qo'shnilaridan qarz olingan, buzilgan imoratlar hashar yo'li bilan tiklangan. Davlat yo'li bilan metallardan pul zarb qilingunga qadar oltin va kumush vositasi bilan zahiralar to'plangan.

Asrlar davomida qo'ni-qo'shnilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar qishloq va mahalla miqyosida kengaygan. Sug'urta tartibi vujudga kelganda zarar ko'lami xo'jalik uchun katta bo'lganda jabrlangan oilalarni og'ir ahvoldan qutqarish uchun birgalashib mablag' to'plash orqali moddiy yordam uyushtirilgan. Shuningdek, savdo karvonlari uzoq safarda qarochilar tomonidan talansa, ko'rilgan zarar karvon ishtirokchilari o'rtasida barobar taqsimlangan. Lekin keyinchalik maxsus fond tuzilib, bu fond hisobidan faqat ko'rilgan zarar emas, balki savdogarning oila a'zolari ham bahramand etilgan.

Ayrim olimlari sug'urta termini dastlab Evropada qo'llanilgan degan fikrdalar. Xalqaro savdodagi mol-mulk sug'urtasi haqida gap borganda Babil davlatining yurtboshchisi Hammurapiy qonunlarida meloddan oldin savdo karvonlariga yetkazilgan zarar o'zaro taqsimlanib, yordam uyushtirilgani ko'rsatilgan. Bu qonun xalqaro savdo yo'li bilan boshqa mamlakat savdogarlari karvonlariga ham tarqalgan, hatto Buyuk Ipak yo'li orqali safarda bo'lgan savdogarlar bu usuldan foydalanganlar.

Lekin shaxsiy sug'urta bo'yicha Yevropada meloddan oldin ayrim hududlarda, tumanlarda maxsus nikoh, vafot hodisalari bilan bog'langan o'zaro fondlar tashkil qilshgani haqida ma'lumotlar bor.

Topshiriq: Matnni o'qing va savollar tuzing. Savol asosida so'zlab bering.

BUYUK IPAK YO'LI

Hindistondan Sirdaryogacha, Kaspiy dengizi qirgoqlaridan Xitoygacha turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir-birlari bilan yaqin aloqada bo'lganlar. Bunda karvon yo'llarining ahamiyati juda kattadir.

Bizning eramizgacha bo'lgan II-asrdayoq savdo-sotiq ishlarida karvon yo'li (Buyuk ipak yo'li) janubiy-sharqiy Yevropa, Eron, Kavkaz, O'rta Osiyoni Mo'g'iliston va Xitoy bilan bog'lagan.

Buyuk ipak yo'li qadimgi Xitoy va O'rta Osiyoni, so'ngra O'rta dengiz va Hindistonni bog'lagan. Shunday qilib, eng yirik karvon yo'li - Buyuk ipak yo'li butun Osiyoni, ya'ni Sharqni - G'arb bilan bog'lagan bo'lib, savdoga asoslangan bog'lanish bo'lgani uchun Buyuk Ipak yo'li deyilgan. Xitoyliklar O'rta Osiyodan paxta, uzum, loviya, anor kabilarni o'z vatanlariga ko'paytirish uchun olib ketganlar. Xitoyliklar g'arbdan qog'oz, ipak, porox olib kelib ishlab chiqarishni o'zlashtirganlar. Buyuk ipak yo'li O'rta Osiyoning eng yirik markazlari-Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlari orqali o'tgan.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing, harfiy birikmalarning talaffuziga e'tibor bering.
 2. Savollar tuzing va shu asosida so'zlang.
 3. Undosh tovushlarning talaffuziga e'tibor bering.
- Tejamkorlik, vatan haqida maqollardan namunalarni daftaringizga yozing.

MAVOZA TARIXIDAN

Ko'p asrlardan buyon mavoza tovarlar va xizmatlarni boshqa tovarlarga va xizmatlarga pulsiz ayirboshlash usuli bo'lib kelgan.

O'rta asrlarda tabiiy ayirboshlash juda ommabop bo'lgan. Bu o'rinda Yevropani eslash o'rinli yoki Buyuk ipak yo'li orqali Osiyo karvonlarining G'arbiga Xitoy chinnilari, Yapon ipagi va boshqa mahsulotlarni olib borib, bu yoqqa esa, metall, yog'ochdan yasalgan buyumlarni olib qaytishgan davrni eslash kifoya...

Oradan bir qancha yuz yillar o'tib, mavoza usuli hamon dolzarbligacha qoldi, biroq uning shakli o'zgardi, jumladan, mavoza ham savdoning muqobil shakliga aylandi. Endilikda, mavoza tizimi o'z mazmunini saqlab qolib, kompyuterlar bilan boshqariladigan elektron bozorni ifodalaydi. Ushbu bozor butunlay yangi operatsiyalarni bajaradi, tovarlar va xizmatlarni ayirboshlash ishlarini amalga oshiradi, moliyaviy tushumni muqobillashtiradi, samarali reklamani va kompaniyalar taqsimotini ta'minlaydi.

Topshiriq: Matnni o'qing va reja tuzing. Tuzilgan reja asosida so'zlang. Undosh tovushlarning talaffuziga e'tibor bering

SOLIQ NIMA?

Soliqlar davlatning korxonalar va tashkilotlarning har bir fuqaro topgan daromadidan foiz miqdorida undiriladigan pul mablag'idir. Soliqlar davlat budjetini hosil qiladi. Davlat sarmoyasi iqtisodiyotni bir tekis yurgizish imkonini beradi. Minglab tadbirkorlar korxonalar, tashkilotlar, firmalar o'z foydalaridan davlatga soliq to'laydilar. O'z navbatida davlat xizmatchilariga to'lanadigan maosh va boshqa zaruriy xizmatlar uchun to'lovlar amalga oshiriladi.

Davlat budjeti hukumatning har yilgi daromad va xarajatlari hisobidir. Davlat budjetining asosiy vazifasi moliyaviy zahiralarni yordamida iqtisodni samarali rivojlantirish va umumdavlat miqyosidagi vazifalarni hal qilish uchun sharoit yaratishdir.

Budjetning o'zi ikki qismdan iborat bo'ladi: yalpi daromad va xarajatlar. Olingan soliq davlat budjetining daromadi bo'lib, u obodonlashtirish, madaniy ishlar, sog'liqni saqlash, maktab - maorif, ijtimoiy ta'minot sohasidagi chora - tadbirlar uchun ishlatiladi.

Topshiriq: Matnni o'qing va reja tuzing. Reja asosida so'zlab bering. Matndagi "q" tovushining talaffuziga ahamiyat bering.

QOG'OZNI PAXTADAN ISHLAB CHIQRISH

O'zbekiston paxta ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda eng mashhur mamlakatlar qatoriga kiradi. Hozirgi kunda paxta qoldiqlaridan qog'oz ishlab chiqarish juda katta ahamiyatga ega. Germaniyaning "ECO CX" va O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi bilan hamkorlikda o'zbek-nemis "Hambum DTM" qo'shma korxonasi Namanganda tashkil etildi. Yaqin orada yiliga besh ming tonna qog'oz ishlab chiqaradigan korxonalar ishga tushirilishi mo'ljallanmoqda.

Loyihaning tannarxi 8 mln. dollar bo'lib, ustav kapitalining 62 foizi O'zbekistonga, 28 foizi Germaniyaga va 14 foizi Rossiyaning "Reform-express" aksionerlik jamiyatiga tegishli. Hozirgi kunda korxonalar ishga tushirilgan bo'lib, unda makalatura qaytadan ishlab chiqarilmoqda. Shu bilan birga paxtani (paxta tolasini) qayta ishlashga kerak bo'lgan asboblarni ham ishga tushirildi. Paxtaning qoldiqlaridan qog'oz ishlab chiqariladigan asboblarni Hindistondan sotib olib kelindi.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing, unga bir necha savollardan iborat reja tuzing. Matnda qo'llangan gaplarning tuzilishiga ko'ra turlarini aniqlang.
2. Quyidagi so'zlar va so'z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling: kichik korxonalar aksiyalashtirish, xususiyalashtirish, iqtisodiy iste'molchi, ruhiy muhit, to'lov, ishlab chiqarish.

BANK QACHON PAYDO BO‘LGAN?

“Bank” so‘zi birinchi marta Italiyada paydo bo‘lgan. Italiyancha “Banko” so‘zi “skamya” (kursi) ma’nosini anglatib, bundan hozirgi “bank” so‘zi paydo bo‘lgan.

Hozirgi zamon bank tizimi birinchi marta 1587-yilda Vizantiyada tashkil etilgan bo‘lib, u “Ban Ko di Rialdo” deb nomlangan. U pul qabul qilgan va pul qo‘yuvchiga ma’lum (aniq) bir so‘m miqdorida chek yozib bergan.

1619 yilda bankni “Banko del Djiro” egallaydi va u qabul qilgan oltin va kumushga tilxat bera boshlaydi. Bu tilxat pul sifatida foydalana boshlangan. Mazkur tilxat keyinchalik “bank puli” deb nomlana boshlangan.

Angliyada 1694 yilgacha (Angliya banki tuzilgunga qadar) zargarlar bankir sifatida xizmat qilganlar.

1825-yilgacha ushbu bank Angliyada yagona hisoblangan.

1782-yilga kongress tomonidan Amerikada birinchi marta “Shimoliy Amerika banki” nomli bank shakllangan.

Sharq mamlakatlarida ham pul berish tizimining o‘ziga xos ko‘rinishlari mavjud bo‘lgan. Ularni sudxo‘rlar oltin (tilla) va boshqa qimmatbaho buyumlarni garovga olib berganlar.

Topshiriq:

1. Matnni o‘qing, qo‘shma gaplarni aniqlang. Tininsh belgilarining qo‘llanishiga ahamiyat bering va reja tuzing. Reja asosida so‘zlang. O‘zbekiston Respublikasida mavjud banklarni sanab bering.

2. Savollarga qo‘shma gap shaklida javob bering.

1. Nima uchun yo‘lovchilar vokzalga qarab ketayotgan edilar?
2. Sizning guruhingiz talabalari qachondan boshlab sportzalga borishadi?
3. Qo‘shma gapni davom ettiring:

1. Shahrimiz kundun-kunga shunday o‘zgardiki
2. U shunday yaxshi ishlaydiki
3. Eshik yanayam katta ochildi,
4. Aziza xonaga yugurib kirdi-yu,
5. Qo‘shma gaplarni davom ettiring

1. Institutga kirmaguncha,
2. Kosmik raketalarining muvoffaqiyatli uchirilishi shuni ko‘rsatdiki,

5. Ikkita oddiy gapdan qo‘shma gap tuzing.

1. O‘qituvchi talab qildi. Biz testlarni o‘z vaqtida topshirdik.
2. 5 ming yil avval oyna yasashni bilishar edi, olimlar aniqlashdi.

BUXORO

Buxoro O'rta Osiyoning ko'hna shaharlaridan biridir. Bu shahar bundan 2300 yil muqaddam Zarafshon vodiysining quyi qismida qad ko'targan. Dastavval u daryoning Zarirud nomli quyi tarmogining ikki sohili - bir-biriga qarama-qarshi joylashgan 3 ta qishloq shaklida paydo bulgan.

Bu qadimgi qishloqning atrofi o'sha zamonlardayoq alohida-alohida mudofaa devorlari bilan o'rab olingan edi. Shaharning bir necha darvozasi bo'lib, har bir qismiga alohida darvoza orqali kirilgan. Shaharning maxsus devor bilan o'ralgan maxsus eng baland qismiga qurilgan qo'rg'on-ark deb atalib, unda podshoh va amirlar yashagan. Arkda podshohning ko'shki va saroylaridan tashqari, xazina, pul chiqariladigan zarbxona, zindon, navkarlar uchun bostirmalar bo'lgan. Shaharning qolgan asosiy ikki qismida shahar a'yonlari, savdogarlar, hunarmandlar yashagan.

Qadimgi Buxoro Eron, Kichik Osiyo va O'rta Dengiz bo'yi mamlakatlarini Xitoy bilan bog'lagan savdo yo'li - Buyuk ipak yo'lida joylashgan bo'lib, bu yo'l orqali buxorolik savdogarlar Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiyaga tuyalar karvonida turli xil savdo mollarini olib borganlar.

O'rta asrlarda Buxoro O'rta Osiyo va O'rta Sharqda ilm-fan, ma'rifat va madaniyatning markazlaridan biriga aylandi. Bu shaharda mashhur mitafakkir olim va adiblardan Abu Ali Ibn Sino, Narshaxiy, Ro'dakiy va boshqalar yashab ijod qilganlar. Asrlar davomida Buxoro O'rta Osiyoning yirik ma'muriy markazi sifatida ham tanildi.

Buxoro keyinchalik yanada rivojlandi, gullab-yashnadi. Avvalo, shaharning suv ta'minoti tubdan yaxshilandi. U to'la elektrlashtirildi va gazlashtirildi.

Shahardagi mavjud oliy o'quv yurtlarida minglab talabalar tahsil olmoqda. Buxoroda markaziy kutubxona, tarix va ulkashunoslik muzeyi, drama teatri, ko'plab kinoteatrlar bor.

Buxoro tarixiy obidalarga boy. Shuning uchun ham ular hozirgi kunda minglab sayyohlarning diqqat e'tiborini o'ziga jalb etmoqda.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va savollar tuzing.
2. Imom Al - Buxoriyning "Sahih hadislarini" dan quyidagi parchalarni o'qing, ma'nosini tushuntiring:
Uch toifa kishinarning duosi hech shubhasiz Olloh, qoshida maqbuldir:
Mazlumlarning, musofirning, ota-onaning.
Vatanni sevmoq - iymondandir.
Kishi o'z ota-onasini so'kishi katta gunohdir.

MILLIY SAN'ATIMIZ TARIXIDAN

Markaziy Osiyo IX - XII asrlarda jahon ilm-fani taraqqiyotida mislsiz katta ahamiyat kasb etgan edi. XIV - XVI asrlarda ham Markaziy Osiyo tabiiy va ijtimoiy fanlar sohasida bir qancha buyuk olimlarni yetishtirdi, jahon fani taraqqiyotiga yanada hissa qo'shdi. Bu davrda tasviriy san'at sohasida ham katta muvaffaqiyatlarga

erishildi. Behzod, Mirak Naqqosh, Shoh Muzaffar kabi iste'dodli rassomlar yetishdi. O'sha davrda yaratilgan tasviriy san'at yodgorliklari bizgacha yetib kelgan.

Saqlanib qolgan rasmlar orasida Jomiy, Navoiy, Behzod, Xusayn Boyqaro, Bobur, Shayboniyxon va boshqa madaniyat hamda davlat arboblari suratlarini ko'ramiz.

KAMOLIDDIN BEHZOD

Kamoliddin Behzod 1455 yilda Hirot shahrida tugildi. U ota-onadan juda erta yetim qoldi. Uni Husayn Boyqaroning kitobdori (kutubxonalar boshligi) Mirak Haqqosh o'z tarbiyasiga oladi. Kamoliddin rassomlik san'atiga qiziqadi, qobiliyati va iste'dodi bilan kishilarning e'tiborini jalb etadi. Ko'p o'tmay ilm - fan, san'at va adabiyot ahllari orasidan o'ziga munosib o'rin oladi. Navoiy iste'dodli yosh rassomga alohida diqqat - e'tibor beradi, unga har tomonlama g'amxo'rlik qiladi. Behzod 1510 yilgacha Hirotida yashab, ijod qiladi. Keyin esa u Ozarbayjonga - Tabrizga boradi. U yerda poytaxt kutubxonasi va san'atkorlariga boshliq qilib tayinlanadi. Kamoliddin Behzod 1533 -1537 yillar o'rtasida vafot etadi.

Behzodning zamondoshlari hamda keyingi davrning olimlari uni

“Sharq Rafaeli” deb nomlashgan. Behzod tasviriy san'atning ulug' namoyandasi bo'lib, u rassomlikda “Hirot maktabi” deb nomlangan yangi bir ijodiy uslubning asoschisi bo'ldi va ustoz san'atkor sifatida Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalar tasviriy san'atining taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi.

Topshiriq:

1. Matnni o'qib undosh tovushlarning talaffuziga e'tibor bering, reja tuzing.
2. Bizga zamondosh rassomlar haqida so'zlang.

MUSIQA SAN'ATI TARIXIDAN

Markaziy Osiyoda IX - XII asrlarda me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik san'ati bilan birgalikda musiqa san'ati ham taraqqiy etdi. Buyuk allomalar Forobiy, Ibn Sino, Ro'dakiy va boshqalar musiqa katta e'tibor berdilar. Ibn Sino musiqa doir mulohazalarni “Kitob ush-shifo” asariga alohida bob sifatida kiritgan. Ibn Sino musiqaning estetik ahamiyati va ta'sir kuchiga shunchalik e'tibor berar ediki, u ayrim jismoniy va ruhiy kasalliklarni musiqa kuylari vositasi bilan davalash mumkin degan fikrni ilgari surgan edi.

Dunyo adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Abu Abdullo Ro'dakiy ud va chang yordamida xalq qo'shiqlarini kuyga solib, mohirlik bilan ijro etar edi.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va savollar tuzing. Savollar asosida so'zlang. Undosh tovushlarning talaffuziga e'tibor bering
2. Quydagi so'zlarni tarjima qiling: muhim, ijodiy, qobiliyat, san'atning manbai, tasviriy san'at, namoyonda, chang, mohir.

ULDUZ USMONOVA

Bugungi o'zbek san'atida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Yulduz Usmonova katta mavqega ega. U o'zining jozibador qo'shiqlari bilan xalq hurmatiga sazovor bo'ldi.

Yulduz Usmonovanning repertuaridan o'zbek qo'shiqlaridan tashqari qozoq, uygur, rus va boshqa xalqlarining qo'shiqlari ham o'rin olgan. Chunonchi, Y.Usmonova "Dunyo" qo'shig'ini ingliz tilida Gollandiyada ijro etib, chet elda ham tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan.

Yu. Usmonova ijro etgan qo'shiqlarini tinglagan har bir inson teran fikrlash tarzidagi o'ziga xoslik tuygusini tuyadi.

O'zbek xalqining farzandi, sevimli san'atkori Yu.Usmonovanning qo'shiqchilik san'ati borasida qilgan mehnati hech bir mubolag'asiz, el ardoqlagan ustoz san'atkorlar mehnati bilan barobar turadi.

Topshiriq:

1. Matnni o'qib reja tuzing va reja asosida so'zlab bering. Undosh tovushlarning talaffuziga e'tibor bering.
2. Fe'llarning tuslanishi va zamon kategoriyasiga ahamiyat bering.
3. O'zingiz yoqtirgan o'zbek san'atkorlari haqida fikr bildiring.

QOMUSIY OLIMLAR

Islomgacha ming yillar ilgari ma'rifat (maorif) markazi Gretsiya bo'lib, butun mamlakatlar greklar ta'sirida bo'lgan. Filosof va matematik Aristotel, Ptolomey, Arximedlar olamni tasvirlaganlar. Gippokrat va Galenlar tibbiyot traktatini, ularning asarlarini saqlaganlar va ko'chirib olganlar. Biroq ularning ko'pchiligini mutaassib (fanatik)lar ta'qib qilganlar. Ular Eronga qochib borganlar. Sharqda ularning qarashlari yanada yuqori ko'tarilgan va sharq falsafasi bilan birlashgan. Masalan, rim raqamlari sharqda musulmonlar tomonidan takomillashtirilgan. Xuddi ana shu taraqqiy ettirilgan hisob tizimidan hozirda foydalanilmoqda.

Qachonlardir bu raqam (sifr)lar "algorism" deb yuritilgan, ya'ni IX asrda yashagan matematik Al-Xorazmiy nomi bilan bog'langan. O'rta asr olimlari orasida buyuk allomalar, mutafakkirlardan Ibn Sino (Avitsenna) Buxoro yaqinida tug'ilgan bo'lib, u tibbiyot, matematika, astronomiya, falsafa kabi fanlar bilan shug'ullangan. Uning "Tib qonunlari" asarida ko'p kasalliklarning paydo bo'lish sabablari, alomatlari, shuningdek, 760 (etti yuz oltmish)dan ziyod dori-darmonlar ro'yxati keltirilgan. X asrda yashagan Al-Ma'sudiy geografiya, biologiya va boshqa ilmlar bo'yicha asarlar yaratgan. Darvindan 900 (to'qqiz yuz) yil avval (oldin) evolutsiya nazariyasini taklif etgan buyuk alloma olimdir.

Topshiriq:

1. Mavzuni o'qing fe'llarning tuslanishi va zamon kategoriyasiga e'tibor bering.
2. Reja asosida so'zlang.

XORAZMIY

Xorazmiy ilk matematika faniga asos solgan allomalardan. U Fargʻoniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar bilan zamondosh. Bu olimlar oʻz asarlarini arab tilida yozganlar. Chunki oʻsha davrda mamlakatimizga islom dini bilan birga arab tili va madaniyati ham kirib kelgan.

Abu Abdulla Muhammad-Ibn Muso 780 yilda Xiva shahrida tugʻilgan. U yoshligidan matematikaga juda berilgan va oʻzining qobiliyati bilan xalq oʻrtasida hurmatga sazovor boʻlgan edi. U Sharq kutubxonalarida mavjud boʻlgan ilmiy asarlarni qunt bilan oʻrganadi. Matematika, astronomiya, geometriya, geografiya, tibbiyot va tarixni chuqur egalladi. Xorazmiy arab, fors, hind va yunon tillarini ham oʻrganadi bu tillarda yozilgan asarlarni mutolaa qilib oʻz bilimini oshiradi.

Xorazmiy tomonidan yozilgan “Qisqargan Sindirhund” kitobida astronomiya, matematikaga oid fikrlar bildirilgan.

Xorazmiy algebra fanining asoschisidir. U birinchi boʻlib “Aljabr va muqobala” degan asarini yozadi. Asar lotin va boshqa tillarga tarima qilinib, butun dunyoga tanildi. Bu kitobning bir qismi hozirgi Aljabr (algebra) ga aylanib ketdi.

Muhammad Muso Xorazmiy butun dunyo olimlari tan olgan buyuk siymo edi. Gʻarbda al Xorazmiyning lotinlashgan nomi -“Algoritmus”.

Xorazmiy Bagʻdodga kelgandan soʻng astronomik va geodezik kuzatishlarga rahbarlik qiladi. Bu yerda “Yangi astronomik tablitsalar” (ZIJ)ni yozadi. Asar 1126 yilda lotin tiliga tarjima qilingan.

Muhammad Muso Xorazmiy geografiya sohasida “Yer surʻati kitobi”ni yozadi.

Xorazmiy yerni 7 iqlimga boʻladi, yer xaritasini chizadi. Olimning 4tagina xaritasi bizgacha yetib kelgan. (Yaqin va Oʻrta Sharq xalqlari, Azov dengizi va Nil daryosi xaritasi).

Xorazmiy sathlarni oʻlchash haqida, quyosh soati toʻgʻrisida va boshqa sohalarda ham koʻp asarlar yozgan. Lekin, olimning asarlarining arab tilida yozilgan asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Uning asarlaridan faqat Yevropa tillariga tarjima qilinganlarga saqlanib qolgan.

Xorazmiy 847-yili vafot etgan.

Topshiriq: Matnni oʻqing. Savollar tuzing va soʻzlab bering.

ABU RAYHON BERUNIYNING IQTISODIY IXTIROSI

Pul paydo boʻlgan davrdan boshlab, ayniqsa, tanga shaklidagi turli metallardan pul zarb etish boshlangan. Misrda Movaraynnahr va Xurosonda juda katta miqdorda toʻla qiymatga ega boʻlmagan tangalar zarb etish avjga chiqqan. Masalan, muomalada boʻlgan “Ismoiliy” dirhamlari qimmatga ega boʻlmagan metallardan zarb qilingan. Buxoro dirhami – “gitrifiy” yoki past sifatli kumushdan yasalgan “Muhammadiy” tangalar muomalaga chiqarilgan. Bunday hol turli xil qallobliklarning, aldashlarning kuchayishiga qulay sharoit yaratdi. Buning oqibatida oltin dinorlar ham muomalada qatnashmay qolishiga olib keldiki, natijada oltin tangalar oddiy tovarlar kabi tortib beriladigan vaziyat vujudga keldi.

Maʼlumki, Abu Rayhon Beruniy mineralogiya va metallshunoslik boʻyicha oʻz davrning eng yirik olimi edi. U iqtisodiy taraqqiyotga putur yetkazayotgan bunday

ahvolga qarab turmadi. U juda katta tadqiqotlar, izlanishlar, amaliy tajribalar o'tkazib, minerallar tarkibidagi qimmatbaho metallar hissasini topish uslubi–maxsus o'lchov asbobini yaratdi. Bu asbob pul munosabatlari tarixida, uning rivojlanishida bebaho ahamiyatga ega bo'lgan. Bu asbob yordamida turli metallardan yasalgan tangalar tarkibidagi qimmatbaho metallarning haqiqiy miqdorini o'lchash mumkin bo'ldi. Bunday asbobning yaratilishi pullar o'rtasidagi haqiqiy nisbatlarni aniqlash, ularni o'zaro almashtirishning adolatli asoslariga ega bo'lish imkoniyatini berdi. Beruniy o'zi yasagan asbobning tuzilishini, uning qanday mexanizmlardan va qay usulda yasalganini “Mineralogiya” nomli asarida bayon qilgan.

Topshiriq: Matnda ishlatilgan tinish belgilarga e'tibor bering.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Zahiriddin Muhammad Bobur–buyuk davlat arbobi, olim, mutaffakkir adib. Bobur yoshligidanoq davlatini idora qilgan. Bobur davlat arbobi sifatida o'z xalqini o'ylab iqtisodiyotga (reforma) isloh ishlarini kiritgan. Xalqning turmush sharoitini yengillashtirgan.

Bobur elga tanilgan adib, uning “Boburnoma” nasriy asari esa dunyoga mashhur. Bu asar bir necha tillarga tarjima qilingan, shu bilan birga Bobur lirik shoir. Uning g'azallarida sevgi, hijron, vatan ishtiyoqi motivlari kuylanadi. Bobur–olim, u o'zbek tilshunosligiga yangilik kiritdi, ya'ni o'zbek alifbosini yaratdi. Bu alifbo 4 yil hukm surdi, keyin bekor qilindi.

Bobur vatandan yiroqda bo'lsa ham, Vatan ishtiyoqida yashaydi, u umrining oxirigacha Vatan sog'inchi bilan yashaydi. U Agrada vafot etadi.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va savollar tuzing. Undosh tovushlar talaffuziga e'tibor bering.
2. Savollar asosida so'zlab bering.
3. Shoirning quyidagi ruboiylaridan namunani yod oling.

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.
Yod etmas emish kishini gurbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngilni mehnatda kishi
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi oh,
Gurbatda suykmas emish, albatta kishi.

AMIR TEMURNING IQTISODIY SIYOSATI

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida ulug' bobokalonimiz, sohibqiron, buyuk sarkarda Amir Temurning iqtisodiy g'oyalari, u ishlab chiqqan va amalda yuritgan iqtisodiy siyosat mislsiz ahamiyatga ega Temur iqtisodiy g'oyalarining o'ziga xos ulug'vorligi shundaki, ular xayoliy emas, balki aniq hayotdan kelib chiqqan va unda o'z ifodasini topgan.

Temurning iqtisodiy g'oyalari "Temur tuzuklari" asarida bayon etilgan. Unung iqtisodiy g'oyalari va siyosati zamirida inson, uning manfaati, farovon va tinch hayot kechirish tashvishlari yotadi. U odamlarga kasb-hunar berish, ish bilan ta'minlash, tadbirkorlik faoliyati va tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'lish uchun yetarli sarmoya berish, yetarli uy – joylar qurib berish haqida qayg'uradi.

Sohibqironning iqtisodiy qarashlari va yuritgan yangicha iqtisodiy siyosat tarbiyani yo'lga qo'yish ishlarida biz uchun muhim dasturulamal tarixiy yo'l – yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Bunday iqtisodiy qoidalar Garbdan 300-400 yil ilgari amal qilindi, hayotiy tajribadan o'tdi.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing, savollar tuzing va so'zlab bering.
2. Quyidagi so'z birikmalari va so'zlarni tarjima qiling:
Tafakkur, sarkarda, hayot tashvishlari, tadbirkorlik faoliyati, manfaat, sarmoya berish, iqtisodiy qoida, g'oya, mislsiz, dasturulamal.

ALISHER NAVOIY VA IQTISODIYOT

Navoiy yashagan davrda markazlashgan Davlat yanada mustahkamlandi, mamlakat iqtisodi birmuncha rivojlandi. Qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik sohasida muayyan yutuqlarga erishildi. Alisher Navoiy buyuk insonparvar, mutafakkir va ulug' shoir bo'lib, uning butun ijodi insonning barkamollikka yetishuviga xalaqit beruvchi salbiy illatlarni bartaraf qilishga qaratilgandir. Navoiy zamonida tashqi savdo rivojlangan. Navoiy mahalliy va ajnabiy savdogarlar faoliyatini kuzatar ekan, ular haqida o'z fikrini bayon qiladi: savdogar dastlab halol rizq topishi, jamiyatga xizmat qilishi kerak. U tog'-toshlar va dasht biyobonlarda tuya suradi, dengiz mavjlari va suv toshqinlarida foyda va zarar ko'radi. Halol rizq topaman deb uzoq mashaqqatli yo'llarni bosadi. Ammo ayrim insofsiz savdogarlar esa xaridorlarni, ayniqsa faqirlarni aldab, ularning hisobiga yashaydilar. Shu sababli ularning bo'yinlarida faqirlarning haqlari bor.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va savollar tuzing. "J" undoshining talaffuziga e'tibor bering.
2. Shoirning ibratli hikmatlari va ruboiylaridan namunani yod oling.

RUBOIYLAR

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu, mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulga tikondek oshyon bo'lmas emish.

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.
Har neniki sevmak ondin ortiq bo'lmas,
Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

HIKMATLAR

Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz.

Sihat tilasang-ko'p yema,
Izzat tilasang-ko'p dema.

Odamiy ersang demagil odamiy,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

ABDURAUFI FITRANING IQDISODIY G‘OYALARI

O‘zining butun ongli hayotini qurbon qilgan allomalarimizdan biri Abdurauf Fitratdir. U o‘z vatani - Turkistonni mustaqillikka ikki yo‘l bilan erishish mumkinligini chuqur his qildi va bu yo‘lda qat‘iy va shijoat bilan kurash olib bordi. Mustaqillikka erishishning birinchi yo‘li - xalqni ma‘rifatli qilish, ziyo tarqatish, dunyo xalqlari erishgan ma‘rifat va madaniyatdan bahramand etish, odamlarda iqdisodiy fikrlash tuyg‘usini uyg‘otish, Vatan taqdiri va kelajagi uchun mas‘ullik ruhida tarbiyalash; ikkinchi yo‘l - Turkistonning o‘z milliy iqtisodiyotini yaratish, mustaqil iqtisodiyot asoslarini qurish g‘oyasidir. Buning uchun Turkiston zaminida foydalanilmay yotgan tabiiy yer osti boyliklarini o‘zlashtirish, milliy hunarmandchilikni jahonning ilg‘or mamlakatlari erishgan yutuqlar asosida rivojlantirish, zamonaviy sanoat korxonalarini qurish, xorijiy texnika, sarmoya va ilm-fan yutuqlarini milliy iqtisodiyot manfaatlariga jalb etish, Vatanning buyuk kelajagini yaratish, uni ozod va obod ko‘rish uchun kurashish lozim, deb bildi. O‘z goyalarini amalga oshirish uchun asarlar yozdi, maktablar tashkil etdi, ma‘rifat ishlari bilan shug‘ullandi. Buyuk ma‘rifatparvar Fitratning iqdisodiy dunyoqarashi bayon etilgan asarlaridan biri - "Hind sayyohining qissasi"dir. Bu asarda milliy iqdisodiyotni barpo etish g‘oyasi, Turkistonni iqdisodiy-ijtimoiy rivojlantirish to‘g‘risidagi muallifning taklif va mulohazalari bayon etilgan.

Fitrat o‘z yurtini iqdisodiy-ijtimoiy taraqqiyot yo‘liga va xalqini farovon hayot kechirish tarziga olib chiqishining asosiy yo‘li Turkistonga Yevropa fani, madaniyati, texnika, texnologiya, sarmoya va ilg‘or tajribasini keng miqyosda va tez sur‘atlar bilan kiritishda deb ta‘kidladi. Buning uchun ikkilanish, g‘ayridin ilmi va texnikasini kiritishdan cho‘chimaslik, sarosimaga tushmaslik kerak, deb ta‘lim beradi: "Chunki, - deydi olim, - Yevropa xalqlari ham bir vaqtlar g‘oyat qoloq va qashshoq bo‘lgan bir davrda Sharq xalqi madaniyati, tajriba va amaliyotini qo‘llash orqali yuksak taraqqiyotga chiqib olganlar. Zero bundan 1000 yillar ilgari Yevropa xalqlari iqtisodiy va ma‘naviy qoloq bo‘lgan davrlarda Sharq xalqlari insoniyat sivilizatsiyasining ancha yuqori darajasida bo‘lganlar". Shu ma‘noda yozuvchi farangistonlik muallim Sharl Sanivyusning quyidagi fikrlarini yuqoridagi xulosaning isboti sifatida keltiradi: "XI asrda Ispaniya bilan Turkiston o‘rtasida savdo karvonlari bemalol borib kelardi. Yeropaliklar musulmonlar taraqqiyotini qabul qilib, kasb va ilm o‘rganish niyatida islom shaharlarida tahsil olar edilar. Yevropa musulmonlar bilan aloqada bo‘lish yo‘li orqali taraqqiy etgan. Yevropaliklar islom olamidan quyidagilarni qabul qilgan.

Ziroat: ko‘k, bug‘doy, tut daraxti, guruch, xurmo, limon, mandarin, paxta, qahva va nay shakar.

Sanoat: shoyi gazlamalar, zar to‘qish, shisha, oyna va qog‘oz.

Ilm-fan: aljabr va almuqobala, handasa, chizmachilik, kimyo va h-o. Islom ahli Yunon, Eron, Hind va Chinning ilm-fan ixtirolarini to‘plab va o‘zlaridan ko‘pgina narsalarini qo‘shib, oqibatul-amr, bularning barchasini Yevropaliklarga topshirdilar."

Abdurauf Fitrat xalqni ilg'or Ovrupa fani, sanoati texnikasini egallashga, o'z yurtini taraqqiy ettirishga chaqiradi. Uning g'oyalari biz uchun bugun ibratli va foydalidir.

Topshiriq:

Matnni o'qing, reja tuzing va so'zlab bering. Bizga zamondosh bo'lgan iqtisodchilar haqida fikringizni bildiring.

Matnda egalik affikslarining ifodalanishiga e'tibor bering.

**MAQSUD SHAYXZODA "YILLARNING SALOMIN YILLARGA ELTIB"
SHE'RIDAN PARCHA**

Yillar o'tib ketar bizdan so'ramay,
Yakshanba, dushanba, seshanba kabi.
Kunduzlar tunlarning sochin taramay,
O'polmas tonglarning pushti rang labin.
Ha, yillar o'tadi, zamon ketadi,
Sen va men qolamiz aziz birodar.
Yurt qolar, el-ulus qolar abadiy,
Va biz quvonch tashib pochta qadar.
Yillarning salomin yillarga eltib,
Boramiz yillardan yillarga o'tib.

Topshiriq. She'rni oqing, mazmunini tushuntiring va yod oling.

ABDULLA ORIPOV

Abdulla Oripov hozirgi o'zbek she'riyatining yirik vakili, mohir tarjimoni va jamoat arbobidir.

Abdulla Oripov 1941 yil 21 martda Qashqadaryo viloyatidagi Neko'z qishlog'ida tug'ilgan. 1958 yili o'rta maktabni oltin medal bilan bitirib, shu yili Toshkent Davlat Dorilfununi filologiya fakultetiga o'qishga kiradi.

A. Oripov o'quvchilik yillaridayoq she'rlar yozishda mashq qila boshlagan. Uning ilk she'rlari birinchi marotaba tuman gazetalarida e'lon qilinadi.

Talabalik yillarida esa she'rlari jumhuriyat matbuotida bosilib chiqib, adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi.

Shoirning ilk tuplami 1965 yili shoir Mirtemir tahriri ostida "Mitti yulduz" nomi bilan nashr qilinadi. Shundan so'ng 1966 yilda "Ko'zlarim yo'lingda", 1969 yili "Onajon", "Ruhim", 70 - yillarda "Buloq,", "O'zbekiston", "Yurtim shamoli", "Hayrat", "Yuzma - yuz", 80 - yillarda esa "Najot qal'asi", "Yillar armoni" kabi qator to'plamlari chop etildi.

1968 yil Abdulla Oripov Oybek, Uyg'un, Mirtemir tavsiyalari bilan Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilinadi. U avval "Yosh gvardiya" nashriyotida, keyinroq, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida bo'lim muharriri, "Sharq yulduzi" jurnalining she'riyat bo'limi mudiri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy maslahatchisi, Yozuvchilar uyushmasi Toshkent

bo'limi mas'ul kotibi, "Gulxan" jurnali bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi kotibi lavozimlarida ishladi.

Abdulla Oripov O'rta asr ital'yan shoiri Dantening "Ilohiy komediya"sidan "Do'zax" dramasi, venger dramaturgi Xeltonning "Soqov ritsar" nomli she'riy dramasi, Pushkin, Nekrasov she'riyatini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

A.Oripov 1983 yili Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Unga adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun 1989 yili "O'zbekiston Xalq shoiri" unvoni berildi. U O'zbekiston Qahramoni hamda Yozuvchilar uyushmasining raisidir.

Topshiriq: 1. Matnni o'qing, savollar tuzing va so'zlang. Quyidagi she'rni yod oling, mazmunini so'zlang.

TILLA BALIQCHA

Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,
Xoru xos, xazonlar ustin yopdilar.

Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.
Menga alam qilar, tilla baliqcha
Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni...

2. Siz sevgan asaringiz haqida insho yozing.

IQTISODIYOTNI NIMAGA O'RGANISH KERAK?

Zamonaviy odamga iqtisodiy bilimlarsiz yashash qiyin. Ovqat, shart-sharoit, kiyim, bo'sh vaqtni o'tkazish bu-hammasi iqtisodiy kuch bilan aniqlanadi. Iqtisodni o'rganish-bu hayotni yaxshiroq, tushunishga va to'laqonli hayot kechirishga imkon beradi. Iqtisodiy kuchlar biznes olamida qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir qiladi. Iqtisodning keng tarqalgan belgilaridan biri bu - odamlar turmush talablarini qanday qondirishlari to'g'risidagi bilimdan iborat.

Zamonaviy iqtisodiyot faniga XVII asrda asos solingan. O'sha davrdan buyon iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy resurslardan to'g'ri foydalanish, ularni o'rganish va tushuntirish usullari ishlab chiqilmoqda.

Iqtisodchilar uchun ikki dunyo mavjud:

Joriy dunyo va kelajakdagi dunyo.

Topshiriq: Matnni o‘qing, savollar tuzing. 2. Savollar asosida so‘zlab bering. Qo‘shma gaplarga izoh bering.

Eslab qoling:

- 1.“Ekonomika” so‘zi grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “uy ho‘jaligini tebratish san’ati” degan ma’noni anglatadi.
- 2.Xalqlarning madaniyati o‘shib borishi bilan kiyim turi ko‘paydi.
3. O‘zbeklarda do‘ppi, to‘n, mahsilar milliy kiyim hisoblanadi.
4. Turmushimiz bundan ham yaxshi bo‘lishi uchun astoydil mehnat qilishimiz kerak.
- 5.Mehnatimiz unumli bo‘lishi uchun ilimli bo‘lishimiz kerak.

E’tibor bering:

Bizga zamondosh A.Oripov, E.Vohidov, M.Yusuf, O‘.Hoshimov, H.Xudoyberdieva, Oydin va boshqa o‘zbek adiblarining asar va she’rlarini xalq juda sevib o‘qiydi.

E’tibor bering:

Sharqda, xususan, Turkiston mintaqasida pul muomalasining joriy etilishi qadimiy tarixga ega. Qadimgi davrning mashhur tarixchisi Gerodot: “Bilishimcha... Eng birinchi bo‘lib lidiyaliklar tanga zarb etishgan, hamda oltin va kumush tangalarni muomolaga kiritishgan”,-degan bo‘lsada, biroq Turkiston hududida miloddan ilgarigi bir minginchi yillardayoq yombilar (oltin va kumush quymalar) muomala vositasi sifatida qo‘llangani aniq. Ular tangalar kabi o‘zlarining hajmi va turiga ko‘ra farqlangani ma’lumdir. Demak, pul muomalasi ilk bor Turkiston mintaqasida paydo bo‘lgan. So‘ng boshqa o‘lkalarga yoyilgan.

Topshiriq: Yangi so‘zlarning ma’nosini tushuntiring. Hozirgi muomaladagi pul tushunchasi haqida fikr bildiring.

TAYVANNING MADANIY YUKSALISH YO‘LI

Tayvan-Xitoydan sharqda joylashgan kichik oroldir. 1949- yilgacha u ushbu davlat tarkibiga kirar edi. Keyinchalik Tayvan mustaqil deb e’lon qilinib, g‘arb dunyosining tarkibiy qismiga aylandi. Tayvan - ikki tillik mamlakatdir, xalqi xitoy va ingliz tillarida erkin so‘zlashadi.

Mustaqillikning birinchi yillarida mamlakatda maktablar yetishmasdi, ko‘pchilik odamlarning bolalari uchun daftar va portfellar sotib olish imkoniyatlari yo‘q edi, butun sinf bitta darslik bilan o‘qir edi.

Hukumat savodsizlikni tugatish yo‘lida chora-tadbirlar olib borar edi. Ko‘p maktablar qurildi, oldin majburiy olti yillik, yillar o‘tib to‘qqiz yillik majburiy ta’lim kiritildi. Hozirgi vaqtda Tayvanning aholisi 20 milliondan iborat bo‘lib, bu mamlakatda 120 universitet va kollejlarni faoliyat ko‘rsatmoqda.

1976 yili butun dunyo Tayvanning iqtisodiy jihatdan tez sur’atlar bilan yuksalayotgani to‘g‘risida gapira boshladi. Mamlakat prezidenti “milliy

madaniyatning saviyasini ko'tarish, ichki siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi", deb ta'kidladi.

Hukumat boshchiligida Madaniy taraqqiyotni rejalashtirish Kengashi tuzilib, unga mashhur olimlar, adabiyot va san'at arboblari kiritildi. Provinsiyalarda 18 ta madaniyat markazlari tuzilib, har yilgi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uchun 10 million dollardan ajratildi. 210 gazeta, 4200 jurnal, 180 noshirlik agentligi, 3297 kitob nashriyotlari, 3 telestansiya, 33 radiostansiya, plastinka chiqaruvchi 746 firma-ushbu targ'ibot va ma'rifatparvarlik tashkilotlar hukumat tomonidan rejalashtirilgan masalalarni hal etish uchun tayinlangan.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing, qo'shma gaplarni aniqlang. Reja tuzing va so'zlab bering.
2. Quyidagi so'zlarni rus tiliga tarjima qiling: yashash tarzi, mavjud bo'lmoq, oldini olish, ijtimoiy yordam berish, qabul qilingan choralar natijasida, boy bermoq, hajm, hamma muammolar, hal etilmadi.
3. **Qo'shma gapni tugating:**
 1. Mening otam o'sha joyda ishlab,.....
 2. Samarqand shahri
4. **Ikkita oddiy gapdan qo'shma gap tuzing.**
 1. Geoximiya ximiyaviy jarayonlarni o'rganadi. Ushbu jarayonlar. Yerda sodir bo'lmoqda.
 2. Injener va olimlar ko'p mehnat qildilar. Fanga yangilik kiritishni xohlardilar.
5. **Qo'shma gapni davom ettiring**
 1.mutaxassis bo'lish uchun, o'zi tanlagan kasbining nozik bo'lgan xususiyatlarini tushunmog'i lozim.
 2. Musiqa tovushlari qayerdadir eshitilmoqda.....

XITOIY IQTISODIY SIYOSATINING HUSUSIYATLARI

Xitoyda bozor reformalari 1978 yil dekabr oyida boshlangan. Uning asosiy xususiyatlaridan biri shuki, ular Kompartiya tomonidan olib borildi, va Xitoy o'zining iqtisodiyotiga bozor munosabatlarini joriy etib, sotsialistik mamlakat bo'lib qolaverdi.

Ushbu reformalar yuqoridan emas, hukumatning ko'rsatmalaridan emas, balki quyi qismdan, ya'ni xalqdan boshlandi. Anxoy provinsiyasida dehqonlar kolxozni tarqatib, mas'ul uy xo'jaliklari tizimini tuzishdi. So'ng ularning tajribasi boshqa provinsiyalarda foydalanildi va shahar hamda qishloqlarda kichik bozorlar ishlashiga ruxsat berildi.

Reforma birinchi bo'lib qishloq xo'jaligida boshlanganligi tufayli, u tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Dunyoda bug'doy yetishtirish bo'yicha Xitoy eng yirik ishlab chiqaruvchiga aylanib, ushbu darajadagi yetishtirilayotgan miqdor-dunyo aholisining beshdan bir qismini boqish uchun yetadi.

Xitoy studentlariga chet ellarda o'qish uchun ruxsat berildi: 1978 yildan 1992 yilgacha taxminan 160000 eng iqtidorli xitoy yoshlari chet elga o'qishga chiqib ketdi.

Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) tashkil etilib, mamlakatning boshqa rayonlariga qaraganda, ularning har biriga katta tajribalar erkinligi berildi.

Topshiriq:

1. Mavzuni o'qing. Savollar tuzing va so'zlang. Qo'shma gaplarning tuzilishiga e'tibor bering.

2. Quyidagi so'zlarni rus tiliga tarjima qiling: korxonalar, muvaffaqiyatga erishish, ishlab chiqarishdagi muammolarning vujudga kelishi, muhokama qilish, yashash minimumi, moliyalashtirishning budjet sferasi, o'rnatish, taqiqlash.

3. Ikkita oddiy gapdan qo'shma gap tuzing:

1. Loyiha hali tayyor emas. Zavodga boriladigan komandirovka (hizmat safari) qoldirildi.

2. Gazetada bitta ilmiy-tekshirish instituti to'grisida maqola berilgan edi. Ushbu institutda tabiatni muhofaza qilish muammolari bilan shugullanadilar.

4. Savollarga javob bering:

1. So'zga chiqmoqchi notiq nima sababdan o'zining nutqini boshlamadi?

2. Nima uchun chet tilini o'rganish uchun magnitofondan foydalaniladi?

OSIYONING BESHINCHI IQTISODIY AJDARI

Shen'chjen Xitoyning janubida joylashgan ochiq iqtisodiy zonasi bo'lib, o'zining olib borayotgan ochiq siyosatini ko'rgazma sifatida Xitoy sarmoyadorlarining kapitalistik amaliyotni o'rganishlari uchun tajriba vazifasini o'tamoqda.

Qisqa vaqtda "madaniy revolyutsiya" davrida "qotib qolgan baliq ovchilari qishlog'i"ni Shen'chjen 2mln. aholi yashaydigan shaharga aylanib Osiyoning Tinch Okean regioniga iqtisodiy rivoji bilan kirib bormoqda.

Bu yerda birinchi marta chet elliklarga ochiq savdo-yer sotish auksioni o'tkazilib, Xitoyda birinchi fond birjasining ochilishiga sabab bo'ldi.

Osiyoning beshinchi iqtisodiy ajdariga aylanmoqchi bo'lgan Xitoyning janubida joylashgan Shen'chjen shahri-mashhur Koreya, Singapur davlatlari qatoriga kirmoqchi.

Iqtisodiy o'sishning o'rtacha tezligi 30 foiz (mamlakat bo'yicha o'rtacha 6-7%). Bu holat rejaga jiddiy rioya qilishni taqozo etadi.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va so'zlab bering.
2. Quyidagi so'zlarni rus tiliga tarjima qiling: mohiyat, talabga mos, ishlash jarayoni, baholash, talab, turmush tarzining yaxshilanishi.
3. **Savollarga qo'shma gap tarzida javob bering:**
 1. Nega majlisda hamma jim o'tirgan edi?
 2. Siz televizorni qachon ko'rasiz?
4. **Ikkita sodda gapdan qo'shma gap tuzing:**
 1. Qo'lyozmalar muhokama qilindi. Tegishli xulosa berish uchun yo'llandi.
 2. Ro'yxatda ko'rsatilgan darsliklar yetkazib berildi. Tegishli nusxada buyurtmalar qilindi.

YAPONIYA IMPERATORINING FARMONI

XX asr boshida Yaponiya imperatori farmon chiqardi... Lotin Amerikasiga ketayotganlarga davlat tomonidan keng imkoniyatlar yaratish belgilalandi.

Yapon hukumati emigratsiyadan quyidagi foydani ko'zladi: birinchidan, o'z mamlakatlarida ishsizlikni kamaytirish, ikkinchidan, butun dunyo bo'ylab yapon koloniyalarini tashkil etish, u yerda mehnatsevar yaponlar tomonidan o'zlarining qishloq xo'jalik va sanoat zonalarini barpo etishlari.

Shuni ta'kidlash lozimki, jahon xo'jaligida davlatning qanchalik tayanch nuqtalari ko'p bo'lsa, o'sha davlatlar bozoriga kirish shunchalik oson bo'ladi, chunki u yerda uning fuqarolari yashab o'z biznesini olib boradilar.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing, sozlang va rus tiliga tarjima qiling.
2. Quyidagi so'zlarni rus tiliga tarjima qiling: ifloslanish, yashash muhiti, tashkil qilmoq, jihozlangan, tadbirkor, tejamoq, moddiy foyda bermoq, imkoniyatlarni amalga oshirish, daromad manbai, soliq to'lovchi.
3. **Qo'shma gapni davom ettiring.**
 1. O'zbekiston mustaqillikka ega bo'lganda,
 2. Mening kursdoshim matnni tarjima qila olmadi,
4. **Savollarga javob bering.**
 1. Yaqinda sizlar guruh bilan qaysi spektaklga bordingiz?
 2. Kecha bir guruh olimlar qaerdan keldilar?

PULNI INSON HAYOTINING TARAQQIYOTI UCHUN SARFLASH

Singapur - Janubiy-Sharqiy Osiyodagi kichik davlat, aholisi 2,7 mln. kishi, ekvator yaqinidagi uzunligi 43 km, kengligi 23 km.ni tashkil etuvchi orolda

joylashgan bo‘lib, iqtisodiy rivojlanashning yuqori darajasiga erishgan (aholi boshiga yillik tushum-9 ming dollar.)

Bu mamlakatda hali 70-yillarda qabul qilingan “bozorni muvofiqlashtirish”ning yagona dasturi alohida qo‘shimchalarsiz insonlar farovonligini ta’minlaydi.

Bu yerda pul avvalambor inson hayotining rivoji uchun sarflanadi, keyingina sanoat, ob’ektlar, binolar, transport magistral-lariga ishlatiladi. Jamiyatda kishilarning turmushi og‘ir bo‘lsa, ular mehnat qilisha olmaydi, oqibatda, iqtisodiyotga ham putur yetadi.

Singapur aholisining 70% dan ko‘prog‘ini xitoyliklar tashkil etadi, yana malayziyaliklar, hindlar va boshqa millat vakillari ham bor. Aholining milliy xilma - xilligiga qaramay, mamlakatda milliy asosdagi to‘qnashuvlar deyarli yo‘q.

Tabiiy resurslarining umuman yo‘qligiga qaramay, Singapur tashqi qarzlardan xoli va hech qanday xorijiy yordamga muhtoj emas. Oxirgi ish tashlash bu yerda 15 yil muqaddam bo‘lgan edi.

Taxminan 80% singapurliklar to‘kis uy-joy bilan ta’minlangan. Lekin mahalliy hokimiyat bu bilan qanoatlanib qolmagan. Ular Singapurni 2000 - yilga borib “tropik shahar”ga aylantirish loyihasini ishlab chiqdilar. Ya’ni loyihaga ko‘ra, aholi binolarning yuqori qavatlariga ko‘chadi, pastki qavatlar esa, o‘zaro “jamoatchilik bloklari” bilan bog‘langan bo‘ladi (mahalliy xizmat, kafe, restoranlar va hokazo). Ko‘chalar, asosan piyodalar uchun bo‘lib, transport va shu jumladan, yarim million avtomobillarni esa yer osti ko‘chalariga tushirish nazarda tutilmoqda.

Singapurlik fuqaro yaxshi yashashi uchun ko‘p va sifatli mehnat qilishi kerak. Yiliga 11 bayram kuni mavjud. Mehnat ta’tilini olish oson emas. Firmada birinchi yil ishlayotgan xizmatchi faqat 7 kun maosh bilan ta’minlangan ta’til olishi mumkin. Keyin ishlangan har bir yil hisobiga 1 kundan ta’tilga qo‘shilib boradi. Jami bo‘lib ta’til 14 kundan oshmasligi kerak.

Singapurda ishsizlik faqat 3%ni tashkil qilgani uchun, ishchilarni ko‘chaga haydash hollari uchramaydi. Mehnat konfliktlarini singapurliklar tinch yo‘l bilan, “muzokoralar” orqali hal etadilar. Shuning bilan birgalikda rahbarning maoshi xizmatchinikiga qaraganda 15-20 marta ko‘proqdir.

Topshiriq:

1. Matnni o‘qing, reja tuzing va sozlang.
2. Quyidagi so‘zlar va so‘z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling: arenda, jamoa, rentabellik, majburiy to‘lovlar, jismoniy shaxs, ijodiy qobiliyat, korxonaning egasi, ishlab chiqarishdagi chiqimlar, sifat, tekshiruv, jamoalarning taklifi, doimiy, pul qo‘yuvchi, undiradi, amalga oshiradi.

O‘ZBEKISTONNING JAHON IQTISODIYOTIGA KIRIB BORISHI

Bugungi kunda O‘zbekiston dunyoning turli mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, rivozhlantirib bormoqda. Respublika jahon bozorida mavqega erishib, ishonchli hamkorga aylanib, jahon xo‘jaligi munosabatlari tizimida faol ishtirokchi bo‘lib bormoqda. Buning uchun hamma zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. "Chet el investitsiyalari haqida" va "chet el investorlari huquqlarini

himoya qilinishi va kafolatlanishi haqida" qonun qabul qilindi. Dunyoning 35 ta mamlakati bilan savdo - iqtisodiy hamkorlik haqida shartnomalar imzolandi.

Tashqi savdo faoliyatida import va eksportda ijobiy siljishlar ro'y bermoqda. Respublikada eksport salmog'ini oshirish uchun dastur ishlab chiqildi va qabul qilindi. Bu dasturni amalga oshirish uchun dastur ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash zarur. Bunga esa faqat chet el investitsiyalarini jalb qilib korxonalarni texnik ta'minlash orqali erishish mumkin. Yangi hamkorlar qidirish, yangi qo'shma korxonalar tashkil qilish kerak. Respublikaning jahon bozoriga o'tishining yangi yo'llarini izlash kerak.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing, savollar tuzing. Savol asosida so'zlab bering. Notanish so'zlar lug'atini tuzing, tarjimasini eslab qoling.

2. Ikkita sodda gapdan qo'shma gap tuzing

1. Olmoniyalik tadbikorlar bilan hamkorlikda O'zbekistonda qo'shma korxonalar ochilgan. Bu qo'shma korxonalar bolalar oziq-ovqatini ishlab chiqaradi.

2. Insonda til mavjud. Ular bir birlari bilan til orqali munosabatda b'oladilar.

3. Savollarga javob bering

1. Ish samaradorligini eng yuqori darajasiga erishish omillari nimadan iborat?

2. Nega dengiz suvi ichish uchun yaramaydi?

O'ZBEKISTONNING JAHON BOZORIDAGI O'RNI

Bugungi kunda Markaziy Osiyo, Rossiya, Yevropa yo'llarida "UzDEU avto" korxonasi ishlab chiqarilgan "Neksiya", "Damas", "Tiko", "Matiz", "Dons", "Lassetti" avtomobil markalarini uchratish mumkin. Xalqaro ekspertlar xulosasiga ko'ra bu mashinalar nafaqat markali avtomobil sifatida, balki yaxshi sifati bilan ham ko'zga tashlanmoqda. Avtomobillar oson haydalishi, komfortabel jihozlanganligi va boshqa jihatlari bilan xaridorlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Mazkur avtomobil markalari Rossiya bozorida "Folksvagen" va "Volvo" avtomobillari bilan bir qatordan o'rin olgan. Asaka avtomobillari arzonligi va tejamliligi bilan ajralib turadi. Avtomobil ishlab chiqarish korxonasi nafaqat o'zining mahsulotlari, balki, yengil avtomobil tuzatish va xizmat ko'rsatish sohasida ham butun dunyoga mashhur.

Avtokorxonalar xaridorlarning talablarini hisobga oladi. Shuning uchun mashinaning kuchi germetik saloni, rangli gammalari kengaytirilgan.

UzDEU avtomobil korxonasi mahsuloti Rossiya bozori qatorida Minsk va Buxarest bozorlari rastalaridan o'rin olgan. Yaqin orada, Varshava bozorida ham korxonalar o'z mahsulotini sotuvga qo'yishni rejalashtirmoqda. Shunday qilib, "UzDEU" avtokorxonasi sifatli mahsulotlari jahon bozorlariga ishonch bilan kirib bormoqda.

Topshiriq: Matnni o'qing, reja tuzing va so'zlab bering. Gaplarning uslubiga e'tibor bering.

VATANIM – KATTA IMKONIYATLAR MAMLAKATI

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda, Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan bo'lib, uning hududi shimoli g'arbda Turon pasttekisligini, janubi-sharqda Tyan-shan va Oloy tog' tizmalarini, janubiy g'arbda Qizilqum cho'llarining bir qismini egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi tarkibiga: 12ta ma'muriy viloyatlar va Qoraqolpog'iston Respublikasi, 157 qishloq tumani, 123 shahar va 104 shahar tipidagi qishloq kiradi. Davlatning poytaxti – Toshkent.

O'zbekistonda 100 dan ziyod millatlar va elatlarning vakili bo'lgan 25 milliondan ko'proq kishi yashaydi. Aholining 72% ni o'zbeklar tashkil etadi.

O'zbekiston – katta imkoniyatlar mamlakati O'zbekistonda hamma narsa: tabiat boyliklari, hosildor erlar, mehnat resurslari, iqtisodiy, ilmiy, texnikaviy va ma'naviy imkoniyatlar mavjuddir.

O'zbekistonning mehnatsevar, iste'dodli va mehmondo'st xalqi – bu Respublikaning chinakam boyligidir. Bizning davlatimiz aholining o'sish sur'atlari va mehnat resurslari yuqori bo'lgan mintaqa hisoblanadi. Markaziy Osiyodagi barcha mehnat resurslarining 40%ga yaqini O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston qimmatbaho xom ashyo-paxta yetishtirib beradigan jahondagi eng yirik o'lkalardan biri hisoblanadi. Xalqimiz paxtani haqli ravishda “oq oltin” deb ataydi.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing, savollar tuzing. Savollar asosida so'zlang.
2. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling va yozing: tog' tizimlari, tarkib, elat, tabiat boyliklari, mehnat resurslari, hosildor yerlar, o'sish sur'atlari, yirik o'lka, hissa.

BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISHNING O‘ZBEKISTON KONSEPSIYASI ASOSI

Biz qurayotgan farovon demokratik fuqarolik jamiyati va o‘tkazilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar mustahkam qonuniy asosga suyangandagina haqiqatga aylanishi mumkin. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki davridan boshlab tegishli qonunlar va me’eriy hujjatlar qabul qilishga kelishildi; qonun oldida xo‘jalik sub’ektlarining, jamiyat barcha a’zolarining tengligiga erishishga harakat qilindi. Agar qabul qilingan, qabul qilinayotgan qonunlar tahlil etilsa, bu qonunlar ijtimoiy – siyosiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olganligini ko‘ramiz. Ular orasida mamlakatimizning davlat mustaqilligini ta’minlash, tashqi iqtisodiy va siyosiy munosabatlarini qurish, bozor munosabatlarini tartibga solib turuvchi qonunlarni ko‘rish mumkin. Masalan, Yer haqidagi, uning ijarasi, mulkchilik, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, tadbirkorlik, banklar, raqobat, antimonopol faoliyat, bankrotlik, soliqlar, garov, sugurta, xorijiy investitsiyalar, fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi kabi qonunlarimiz shular jumlasidandir. Prezidentimiz ko‘rsatmasi bilan ilgari qabul qilingan ko‘pgina qonunlarga o‘zgartirishlar, qo‘shimcha va to‘ldirishlar qilib berilayotir, zero, ular bugungi kun ruhini, talabini aks ettirmog‘i lozim.

Topshiriq:

1. Matnni o‘qing, reja tuzing va so‘zlang.
2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning boshqa tamoyillari bo‘yicha referat yozing.

MASKANIM – VATANIM

Hozirgi hayotimizda yuz berayotgan muhim voqealar Vatanimiz, xalqimiz tarixidagi g‘oyat buyuk va unutilmas voqea ya’ni O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganligi sharofatidir. Mustaqil davlatimiz bizga hozirgi zamon sivilizatsiyasining eng yangi yutuqlarini egallab olish, o‘z xalqimiz ma’naviy boyliklari va barcha an’analarini o‘rganib olish imkoniyatini yaratib beradi.

Har qanday uzoq yo‘l birinchi qadamni qo‘yishdan boshlanadi. Har qanday mevali daraxt o‘z shox butoqlarini quyoshga tomon qanchalik baland ko‘tarib yuksaltiravergani sari uning ildizlari ham yer ostiga shunchalik chuqur kirib boradi.

O‘zbekiston xalqi o‘zining boy, ko‘p asrlik tarixiga egadir. Hozirgi O‘zbekiston hududida dastlabki mustaqil davlat tuzimlari eramizdan avvalgi birinchi ming yillik boshlarida paydo bo‘lgan edi. O‘sha zamonlarda Markaziy Osiyo hududida Xorazm, So‘g‘diyona, Baqtriya, Margiona va boshqa qudratli hamda rivojlangan davlatlar mavjud bo‘lgan.

Temur, Bobur kabi dono hukmdorlar hokimiyatni boshqargan zamonlar o‘zbek davlatchiligi taraqqiyotining eng gullab yashnagan va eng yuqori darajaga ko‘tarilgan davrlari bo‘lgan. Bunday buyuk kishilar hukmronlik qilgan yillarda hunarmandchilik, ilm – fan, san’at gullab – yashnagan. Bizning ajdodlarimiz butun bashariyat taraqqiyotiga asrlar bo‘yi so‘nmaydigan g‘oyat katta hissa qo‘shganlar. Abu Ali ibn Sino, Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Imom Buxoriy, Naqshbandiy, Yassaviy, Ulugbek, Navoiy, Bobur va boshqa buyuk allomalarning o‘lmas ma’naviy merosi buning dalilidir.

Topshiriq:

1. Matnni o‘qing, reja tuzing va reja asosida so‘zlab bering.
2. Quyidagi so‘zlarni va so‘z birikmalarini rus tiliga tarjima qilib, daftaringizga yozing:

Unutilmas voqea, an‘ana, imkoniyat, yuksalish, bashariyat, ma‘naviy boylik, ma‘naviy meros.

BOZOR IQTISODIYOTI

G‘arbda bozor iqtisodiyoti deganda, iqtisodiy yechimlar asosan markazlashmagan tarzda qabul qilinadigan iqtisodiyot tushuniladi. Bozor iqtisodiyotining faoliyat ko‘rsatishi asosan bozor mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. G‘arb adabiyotida bozorning ko‘pgina ta‘riflari mavjud. Lekin ularning hammasi shundan iboratki, bozor mustaqil ravishda qarorlar qabul qiluvchi alohida xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, aloqalar shakli hisoblanadi. Har doim ham bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin bozor bo‘lmay, balki raqobatli bozor o‘z faoliyatini ko‘rsatadi. Uning faoliyat ko‘rsatishi uchun dastavval mulkchilikning xilma–xil shakllarini (xususiy, kooperativ, aksiyadorlik, davlat va boshqalarni) ro‘yobga chiqarishini va bozor infrastrukturasi vujudga keltirishini talab etadi.

Topshiriq:

1. Matnni o‘qing, savollar tuzing. Savol asosida matnni so‘zlab bering.
2. Quyidagi so‘zlarni rus tiliga tarjima qiling: moliyaviy hisobot, tekshiruv, soliqlarni belgilash, rag‘balantirilgan sub‘yekt, tenglik, boshlang‘ich qobiliyatlar, davlatning mulki, davlat korxonasi, kelgusida.

PAXTACHILIK TARIXIDAN

Paxta issiq mamlakatlarda o‘sadi. U quyosh nurini yaxshi ko‘radi. Paxtaning ochilishi uchun 3000 kaloriya issiqlik kerak.

G‘o‘zani birinchi marta bundan ming yillar avval Hindistonda o‘stirishgan. Hindistonliklar nozik gazlamalari bilan hammani hayron qoldirishgan.

Xitoy-Hindistonning qo‘shnisi, lekin Xitoyda g‘o‘za manzarali daraxt sifatida o‘stirilgan. Xitoyliklar uni, istirohat bog‘larida ekishgan. Gazlamalarni esa ipakdan to‘qishgan. Faqat bir necha asrlardan keyingina paxtadan gazlama to‘qishni o‘rganishgan.

Go‘za Peru, Meksika xalqlariga ham ilgari ma‘lum bo‘lgan. Misr paxtasi deb atalgan uzun tolali paxta Misrga Perudan keltirilgan. Paxtaning tarixi ana shunday boshlangan.

Topshiriq: Matnni o‘qing, savollar tuzing va nutqingizning sofligiga e‘tibor bergan holda so‘zlang.

AKSIONER KOMPANIYALAR TARIXIDAN

Aksioner kompaniyalar-biznesni tashkil etishdagi to‘liq va mukammal usuli hisoblanadi.

Ular Yevropada XVI asrda aksionerlik savdo uyushmalari 1600 yilda tashkil etilgan Ost – Ind kompaniyasi o‘z aksionerlariga katta daromad ketirgani uchun o‘sha davrdagi xalqaro savdo biznesi tusida bo‘lgan.

Aksionerlik kompaniyasi faoliyatining mohiyati turli kapitallarni to‘plab, bir yoki bir necha odamning kuchi bilan yutuqqa erisha olmaydigan yirik umumiy maqsadni amalga oshirishdan iborat.

Topshiriq:

1. “Aksioner kompaniyalar tarixi” dan matnini o‘qing, unga bir nechta savoldan iborat bo‘lgan, reja tuzing va shu rejaga asoslanib bayon qiling.
2. Quyidagi so‘zlarni rus tiliga tarjima qiling: xususiy shaxslar, egalik va boshqarish huquqi, farq qilmoq, sotilmoq, ko‘tarilish, foydaning ortishi, ko‘maklashmoq, jamiyatda katta va keskin o‘zgarishlar, yetishmoq, qonunlarni bajarmoq.

E’tibor bering:

Quyidagi allomalarning hikmatlarini oqing va mazmunini tushuntiring.

1. Shamdek bo‘l, shamni ko‘r, kuyib qalbu tan.

O‘zgalar tazminini qiladi ravshan .

2. Har kimdagi bo‘lsa yaxshi tabiat

Odamiylik yuksak unda nihoyat

Yaxshilik yaxshi ishlar poyasi

Yaxshilikdir go‘zallikning moyasi

(Xusrav Dehlaviy)

3. Yaxshiga yaxshi bo‘l, yomonga yomon

Gullarga gul bo‘lgin, tikonga tikon

(Sa‘di Sheroziy)

4. To‘g‘rini de, to‘g‘rini ko‘r, to‘g‘ri yur,

To‘g‘ri eshit, to‘g‘ri gapir, to‘g‘ri tur

(Jomiy)

5. Dilingni to‘g‘ri qil, to‘g‘rilik netar?

To‘g‘rilik to‘p-to‘g‘ri maqsadga eltar

(Nosir Xisrav)

“OLTIN HAMKORLIK”

O'zbekistonda oltin qazib olishning milliy rejasi tuzilgan.

Ushbu rejani amalga oshirishda O'zbekiston iqtisodiyotining neft va gaz sektorlarida hamda oltin va boshqa mineral resurslarni qazib olish va qayta ishlashga ko'plab investitsiya kiritgan Amerikaning kompaniyalari yordam beradi.

O'zbekiston bozorida eng faol bo'lgan kompaniyalar “Yunikan”, “Erkon”, “Teksako” va boshqalardir.

Navoiy shahridagi uchinchi tog'-kon metallurgiya zavodining qurilishi ham Amerika kompaniyalarining hisobida.

Ushbu mashhur oltin qazib olish kompleksida yana bitta yangilik kiritilmoqda, ya'ni mobil tog'-kon komplekslari ishga tushirilmoqda.

Amerikaning “Intelek” kompaniyasi Qizilqumdagi kichik konlarda kerak bo'lgan uskunalarni olib keladigan bo'ldi. Cho'lda bunday konlardan bir nechitasi bor.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va reja tuzing, reja asosida nutqingizning aniqligiga e'tibor bergan holda so'zlab bering.
2. O'zbekistonda yana qanday xalqaro kompaniyalar mavjudligi haqida yozing.
3. Quyidagi so'zlar va so'z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling. Kichik korxonalar, bo'ysinish, tadbirlar, axlatni tozalash, ishlab chiqarishning pasayishi, rivojlangan davlat, xususiylashtiris, pasayish.

BIZNES NIMA?

“Biznes” so'zi birinchi marta XVIII - XIX asrlarda paydo bo'lgan. Amerika lugatlarida “biznes” tushunchasi insonning erkinligi va tirikchiligini ta'minlovchi tijorat faoliyat deb talqin qilinadi.

Biznes - bu insonning daromad olib, hayot kechiradigan vositasi.

Ibtidoiy jamoa davrida odamlar o'zining va jamoasining foydasi uchun baliqni teriga almashtirib biznes qilishar edi.

Bir tovarning ikkinchi tovarga almashinishidan boshlab biznes bank, ombor, zavod, birja, dillerlar va h.k. biznesmenlar bilan bog'liq tarmoqlangan faoliyatga aylandi. Shu bilan birga ma'lum bir shaxsga tegishli kapitalning maqsadli ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan turli faoliyat biznes deb ataladi.

Biznesmen - kapitalist o'zining faoliyatida yollanma ishchilarning va xizmatchilarning mehnatidan foydalanadi. Lekin ularga yetarli haq to'lamasligi biznesmenning to'la daromadini tashkil etmaydi, unga ishini muvaffaqiyatli davom ettirishi uchun g'ov bo'ladi. Mustahkam va kuchli biznesga ega bo'lish uchun tadbirkorlik xususiyatiga va biznes bilan bog'liq bo'lgan predmet haqida chuqur bilimga ega bo'lish kerak. Biznesmen tovarni kim uchun va nima uchun ishlab chiqarayotganini kimga va qanday sotishini hamda sotishdan tushgan tushumni nimaga sarflashni aniq bilishi kerak.

Shunday qilib, biznes biron kishining iste'molchi uchun foydali bo'lgan tovarni ishlab chiqarishga yo'naltirgan bilimi va tijoriy faoliyatlar tizimidir.

Biznes tadbirkorning aniq faoliyatiga bo'g'liq. Biznesmenlar o'zining bilimi va qobiliyati ular xohlagan daromadni keltiruvchi sohagagina investitsiya qilishadi. Biznesni bir yoki undan ko'p odam amalga oshirishi mumkin. Ular o'zining ishiga xo'jayin bo'lib kapitalini sharoitga qarab ishlatish huquqiga ega.

Topshiriq: Matnni o'qing va savollar tuzing, savollar asosida so'zlang.

BIZNESNI QANDAY TANLAYDILAR?

AQSHda faoliyat yo'nalishini tanlashdagi xato kishiga moddiy jihatdan ham, ma'naviy jihatdan ham ancha qimmatga tushadi. Omadsizlik, ishi yurishgan va yurishmay qoladigan kishilar o'rtasidagi farqni juda yiriklashtirib yuboradi. Shu sababli Amerikaliklarning avval o'z kasb nuqtayi nazaridan kuchi, bilimi, jismoniy yoki intellektual mehnatga qobiliyatini anglab olib, puxta tayyorlanib, so'ng bir ishga qo'l urishini tushunish mumkin. Ular biznesni tanlashda quyidagi savollarni o'z - o'zlariga beradilar:

- Men nimani ma'qul ko'raman-narsa va predmetlar bilan shugullanishnimi, yoki insonlar va g'oya, fikrlar bilan bog'liq ishlarnimi?
- Yakka tartibda ishlashni afzal ko'ramanmi yoki jamoa tartibidami?
- Jismoniy kuch talab etiladigan ishni uddalay olamanmi?
- Tashkilotchilik, rahbarlik qobiliyatiga egamanmi?
- O'z mehnatimning moddiy natijasini ko'rishni istaymanmi?

Yuqoridagi savollarga har bir amerikalik haqqoniy, to'g'ri javob izlaydi. Ular yaxshi biladilarki, AQSHda qo'lidan kelmaydigan yoki mukammal bajara olmaydigan ishni bo'yniga oladigan kishilarni yoqtirmaydilar.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing va savollar tuzing.
2. Savol asosida so'zlab bering.

SAVDONING DO'KONDAN TASHQARI BO'LGAN TIZIMI

Firma rahbarlari xaridorlarni o'z mahsulotlariga qiziqtirish uchun har doim savdoning yangi usullarini barpo etadilar.

20-asrning 80 yillarida AQSHda ishlab chiqarish kompaniyalari do'kondan tashqari bo'lgan savdo tizimini tashkil etdi. Bu tizim xaridorlarga qulay imkoniyat berdi, chunonchi ular uydan chiqmasdan mahsulotlarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bunday tizimning tashkil etilishi vositachi firmalarning ishlab chiqarish kompaniyalar mahsulotini ko'p miqdorda sotib olib so'ng bozorda baland narxda sotib foyda ko'radiganlardan qutilish uchun mo'ljallangan.

Savdoning bu turi ishlab chiqarish kompaniyalari va xaridorlar uchun juda qulay, ular bir-birlari bilan video va kompyuterlar orqali muloqot qilishadi.

Topshiriq:

1. Matnni o'qib reja tuzing, so'zlang.
2. Quyidagi so'zlarni rus tiliga tarjima qiling. Xo'jalik faoliyati, moliyaviy barqarorlik, xarajatlar, sof daromad, iqtisodiy xarajatning natijasi, foyda, tejash imkonini yaratish.

QIMMATLI Q'OGOZLAR BOZORINING TUZILISHI

Aksioner jamiyatlar paydo bo'lgach ular tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarila boshlandi va bu qimmatli qog'ozlarni ommaga auksion asosida fond birjasi orqali yetkazishni tashkil etish lozim deb topildi.

Fond birjasining asosiy maqsadi-aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni tez va samarali olib-sotishdan iborat.

Qimmatli qog'ozlarning kursi doimiy ravishda ular olib keladigan daromad (dividend yoki foiz ko'rinishida) talab va taklif orasidagi bo'lgan munosabatdan iboratdir.

Fond birjasida faqatgina brokerlar (maklerlar) sotuvchi bo'lib ishlardi, ular o'z mijozlari buyurgan ishni bajarib, shunga asosan ma'lum foiz miqdorida foyda ko'rar edi.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing, savollar tuzing va sozlang.
2. Quyidagi so'z birikmalarini eslab qoling va tarjima qiling.
Qonuniy egalik, tashkiliy, huquq, usul, doimiy mijoz, vakolatxona, ko'maklashish, ish unumdorligi, yashash sharoiti, taraqqiyot yo'li, o'xshash davlatlar, quvvat, atrof muhitni muhofaza qilish.
3. **Quyidagi savollarga javob bering.**
 1. Ko'p olimlar nimalarga intiladilar?
 2. Kursdoshlar qachon o'zlarining taasurotlari bilan uzoq (suhbatlashadilar) o'rtoqlashadilar?
4. **Quyidagi qo'shma gapni tugating.**
 1. Kecha huquqshunos bilan uchrashuv bo'lib o'tdi, ...
 2. Daraxt qurib qoldi, ...

FOND BIRJASI

Fond birjasi - qimmatbaho qog'ozlar oldi-sotdi qilinadigan birja, bozor infrastrukturasi muhim bo'g'inidir. Qimmatbaho qog'ozlar (davlat obligatsiyalari, korxonalar, aksiya va obligatsiyalari, bank kredit biletleri, tijorat viksellari) valuta oldi - sotdisi bo'yicha muntazam va tashkiliy faoliyat ko'rsatadi.

Xalqaro fond birjalari federatsiyasi - Parijda joylashgan xalqaro tashkilot, asosiy maqsadi-barcha aksionerlarga teng huquqni ta'minlash va qimmatbaho qog'ozlar bozori tarkibini muvofiqlashtirish. Fond birjasi-qimmatbaho qog'ozlar savdosini tartibga solish, siyosatning fond bozoriga ta'siri, birja ishi texnikasi va texnologiyasini rivojlantirish masalalarini ko'rib chiqadigan kengashlar o'tkazadi.

Topshiriq:

1. Matnni o‘qing, savollar tuzing va grammatik qoidaga rioya qilgan holda iso‘zlab bering.
2. Quyidagi so‘zlarni tarjima qiling: oldi - sotdi, xalqaro fond, teng huquqni ta‘minlash, tarkib, tartibga solish, ta‘sir, kengash, darhaqiqat, shuningdek, albatta, so‘zsiz, bizningcha

BANK

Bank (fr. banque) - kredit - moliya muassasalari, ularning eng asosiy vazifasi vaqtincha bo‘sh pul vositalarini bir joyga to‘plash, korxonalariga va umuman pulga muhtojlarga, kredit, ssuda berish, pul hisob-kitoblarini amalga oshirish, pul va turli qimmatbaho qog‘ozlar chiqarish, oltin va chet el valutalari bilan bog‘liq muammolarni bajarish va boshqalar. Banklar pul qo‘yuvchilarga ma‘lum foiz to‘lab, qarz olganlardan yuqoriroq foiz stavkasi undiradi. Ana shu foizlar o‘rtasidagi farqdan bank foydasi hosiy bo‘ladi. Hozirgi davrda quyidagi asosiy bank turlari faoliyat ko‘rsatadi:

Markaziy (emissiya) banklar mamlakatning jami kredit tizimiga rahbarlik qiladi, davlat pul - kredit siyosatini amalga oshiradi, pul va qimmatbaho qog‘ozlar emissiyasini monopol huquqda amalga oshiradi.

Tijorat banklari jismoniy va huquqiy shaxslarga xilma -xil bank xizmati ko‘rsatadi.

Maxsus banklar muayyan mijozlar guruhiga xizmat ko‘rsatadi yoki ayrim harakatlarga ixtisoslashadi.

Universal banklar hamma turdagi asosiy bank harakatlarini amalga oshiradigan banklardir.

Mulk shakliga ko‘ra davlat banki, aksioner, kooperativ, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish idoralari, aralash va xalqaro banklar bor. Hozir banklar faoliyatida tijoratlashuv, xususiylashuv jarayoni kechmoqda.

Topshiriq. Matnni o‘qing, savollar tuzing. Savollar asosida so‘zlab bering.

HISSADORLIK JAMIYATI

Hissadorlik jamiyati-bir guruh shaxslar (aksionerlar) aksiya va obligatsiyalarni xarid qilishdan tushgan mablag‘lar hisobidan tashkil topgan korxonona.

Aksiyalar o‘z egalariga daromad (dividend) keltirib, ularga aksionerlar yig‘ilishida ovoz berish huquqini beradi. Obligatsiyalar esa qat‘iy foiz orqali faqat daromad olib keladi.

Hissadorlik jamiyati kengash majlisida saylangan jamoa orqali boshqariladi. Asosan, hissadorlik jamiyatining boshqaruvi aksiyalarning eng yirik qismiga ega bo‘lganlar qo‘lida bo‘ladi. Umumiy majlisga jami aksionerlar yig‘ilmasligi sababli, ovoz yig‘ish uchun 5-20 foiz aksiya bo‘lishi yetarli.

Aksionerlik jamiyatini boshqarish huquqi bilan ta‘minlanishi “Nazorat paketi” deyiladi.

Aksiyalar bir necha xil bo‘ladi: oddiy, xususiy, imtiyozli. Aksiyalarni sotish, sovg‘a qilish va meros qoldirish mumkin.

Topshiriq: Matnni o‘qing va reja tuzing. Gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turini aniqlang.

INVESTITSİYALAR

Investitsiyalar (nem. Investition, lat. Investere - o‘rish) iqtisodni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda turli tarmoqlarga uzoq muddatli kapital kiritish, kapital sarflash tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Uning moliyaviy va real turlari mavjud.

Moliyaviy investitsiya-aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog‘ozlarni sotib olish; real investitsiya-mamlakat ichkarisida va chet ellarda ishlab chiqarishga kapital qo‘yish, shuningdek, yosh suveren davlatlarga qarz va subsidiya berish shakllarida amalga oshiriladi. Investitsiyani davlat, banklar yoki xususiy sohibkorlar berishi mumkin. Keyingi davrda xalqaro iqtisodiy munosobotlarda investitsion hamkorlik rivoj topdi: bunday hamkorlikning real, (ishlab chiqarish tarmoqlariga uzoq muddatli pul qo‘yilmalari), moliyaviy, (qimmatbaho qog‘ozlar muomalasini ham qamraydigan xalqaro kredit -moliyaviy faoliyat), intellektual (mutaxassislarni kurslarda tayyorlash, tajribani litsenziyalarni, hamkorlikda bajariladigan ilmiy ishlanmalar va boshqaga sarflash) turlari bor. Investitsion hamkorlik umumjahon va milliy muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.

Topshiriq: Matnda qanday uslubdan foydalanganligini izohlang. Savollar tuzing.

KREDIT

Kredit (lat. sreditum-qarz) - pul mablaglari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama (protsent) to'lab qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatga qarzga berish. Tijorat krediti va bank kreditiga bo'linadi. Qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor, ssuda oluvchi tomon esa debitor deyiladi. Kredit kelishuvi qarzdin foydalanish shartlari qayd etilgan shartnoma bilan rasmiylashtiriladi. Kreditlar ikki xil: qisqa muddatli va uzoq muddatli bo'ladi. Qisqa muddatli kredit korxonalar va tashkilotlarini aylantirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli kredit esa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kapital mablag'lar ajratish manbai hisoblanadi.

Topshiriq. Matnni o'qing va tarjima qiling. Savollar tuzib, so'zlab bering.

XAYRIYA JAMG'ARMALARI

Katta boyliklarga ega bo'lgan odamlarga pullarini har xil turdagi xayriya jamg'armalarga o'tkazish juda foydali. Hamma rivojlangan mamlakatlarda bu pullar soliqlarga tortilmaydi.

XX asrning birinchi yarmida Amerikaning po'lat qiroli bo'lmish Endryu Kornegi, Rokfeller, Bordolarning mashhur jamg'armalari jahonga tanilgan. Jamoatchilikdagi katta dasturlar ushbu jamg'armalar orqali mablag'ga ega bo'lganlar.

Bu jamg'armalardan katta mablag'lar ilm-fan rivojiga, san'at va adabiyot taraqqiyotiga, tabiatni muhofazasiga yo'naltirilgan.

Topshiriq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarni rus tiliga tarjima qiling: aksiyalar miqdoriga proporsional, taqsimlanadi, korxonalar, sharoitlar yaratish, savonaning kengligi, iqtisodiy harakatlarning natijalari, olib keladi, yutuqlar, oshib ketadi.

VALYUTA

Valuta (ital. Valuta, lat. Valere - qadrlamoq, qiymat) - mamlakatning pul birligi va uning turi (oltin, kumush, qogoz); pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari; pul hisob - kitoblarini taqozo etadigan xalqaro iqtisodiy ayirboshlash va boshqa aloqalarda qatnashadi. Valuta sifatida milliy pul birligi (masalan AQSHda dollar, Germaniyada marka) valyuta kursida ifodalanadigan xalqaro bahoga ega. Amaliyotda valuta milliy banknotlar shuningdek to'lov vositalari va hisob - kitobning kredit hujjatlari shaklida qo'llanadi. Bundan tashqari xalqaro shartnomalar asosida tashkil topgan hisoblarga yozib qo'yish ham valutaga kiritiladi. Metall pul muomalasi sharoitida valuta oltin yoki kumushga maydalanadigan milliy pul kreditlari shaklida namoyon bo'lgan edi. Valutani qimmatbaho metallarga maydalash to'xtatilgandan keyin xalqaro hisob - kitoblarda foydalanadigan barcha milliy valutarlar qogoz bo'lib qoldi. Xalqaro to'lov muomalasi erkin almashtiriladigan yoki Xalqaro valuta fondi belgilagan kurs bo'yicha erkin almashtiriladigan valuta bilan amalga oshiriladi. Xalqaro valuta fondi AQSH dollari, Germaniya markasi, Fransiya franki, Angliya funt sterlingi va Yaponiya ienasini boshqa har qanday mamlakatlar valutasiga erkin almashtiriladigan valutaga kiritgan. Boshqa mamlakatlar valutarlari chegaralangan yoki butunlay tiklanmaydigan, erkin almashtirilmaydigan valutarlardir.

Cheksiz konvertlashtirilgan valuta boshqa valutalariga hech qanday chegarasiz almashtiriladi. Ushbu valuta yana “qat’iy valyuta” deb ham yuritiladi, chunki u boshqa pullarga qaraganda yetarli stabil kursga ega.

“Yarim konvertlashtirilgan valuta” deganda mamlakatning milliy valyutasi faqatgina bir nechta chet el valyutasiga almashtirilishi tushuniladi.

Konvertlashtirilmagan valuta deb faqatgina bitta mamlakatning ichida ishlatiladigan va chet el valyutasiga almashtirilmaydigan valutaga aytiladi.

Jahon iqtisodiyoti mamlakatlar orasida tartibga solingan valyutalar aloqa sistemalarisiz ish yuritilmaydi. Ular tashqi iqtisodiyot aloqalarining pul formasi bo‘lib hisoblanadi, chunki valyuta bu tashqi savdogarchilik va kredit – moliya operatsiyalarining tayanchi deb hisoblanadi.

Hozirgi zamonda olimlar hisobi bo‘yicha dunyo bo‘ylab bo‘lib o‘tayotgan har yilgi valuta-moliya operatsiyalari, taxminan besh yuz milliard AQSH dollariga teng.

Topshiriq:

1. “Valuta” matni o‘qib chiqing, unga bir nechta savoldan iborat reja tuzing va matni bayon qilib bering. Qanday uslubda yozilganini aniqlang.
2. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini rus tiliga tarjima qiling: maishiy chiqindilar, bino, ishonchli, tijorat, hamkor, jamiyatga e’tibor, erkin muomala, jamoa, iqtisodiy yo‘qotishlar, atrof - muhitni saqlash.

MIKRO VA MAKRO IQTISODIYOT

Mikro va makro iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlar ilmiy adabiyotida keng tarqalgan tushuncha. Iqtisodiyotni boshqarishning turli darajalaridagi holatini tahlil qilishda qo‘llaniladi va quyi xo‘jalik yechimlarini korxonalar, firmani boshqarish darajasida hal qilish mikro iqtisodiyotga bo‘linadi. Mikro iqtisodiyot bu ayrim korxonalar xo‘jalik yoki oilalar doirasidagi iqtisod. Makro iqtisodiyot-butun jamiyat, umum davlat miqyosidagi yoki milliy iqtisod turli sohalar tarmoqlar majmuidan iborat.

Topshiriq:

1. Matni o‘qing. Qo‘shma gaplarga e’tibor bering.
2. Quyidagi so‘zlarni tarjima qiling. Rivojlanish, tushuncha, boshqarish, tahlil qilish, jami xo‘jalik, hal qilmoq, oilalar darajasidagi iqtisod, turli soha.
3. **Berilgan ikkita sodda gapdan qo‘shma gap tuzing.**
 1. U doimo iqtisodiy va siyosiy adabiyotlarni o‘qir edi. U siyosatchi bo‘lmoqchi edi.
 2. Maktabni bu yil tugatdik. Biz institutga o‘qishga kirdik.
4. **Savollarga javob bering**
 - a) Nima uchun yerda har doim kun tun bilan almashib turadi?
 - b) Nima uchun yoshlar chet davlatlarga borib o‘qishmoqda?

LAMPALARNI SINDIRMANG

Atrof – muhitning ifloslanishi natijasida simob bug‘lari qator metallar va organik moddalar bilan qo‘shilib, organizmga bir necha barobar ko‘p zararli ta‘sir ko‘rsatadi, genetik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Yodda tuting, bir dona singan lampaning buglari konsentratsiyasidan qisqa vaqt ichida o‘tkir zaharlanish darajasi 20 barobarga yetadi.

Xonani shamollatgan bilan simob bug‘lari chiqib ketmaydi, chunki u bir qator boshqa buyumlarga tez singadi va uzoq vaqt davomida bug‘lanadi. Bu esa xonaga maxsus ishlov berib “dezinfeksiya” qilib, insonga simob ta‘sirini neytrallashtirishni talab qiladi.

Bir vaqtning ichida 1000 dona lampa sinisa simob Toshkent shahar hududining 75 foizini uch qavatli bino balandligini zaharlaydi. Faqatgina maxsus texnologik jarayon va maxsus uskuna yordami bilan lyuministsent lampalarni yo‘q qilish – atrof-muhitga zararli ta‘sirini 8.5 ming marotaba kamaytirish imkonini beradi. Ya‘ni sizni simob xavfidan qutqaradi.

Lyuministsent lampalarni aslo sindirmang! O‘zingiz va yaqinlaringizni bu xavfdan asrang!

Topshiriq. Matnni o‘qing, reja tuzing va so‘zlab bering.

SUV NOYOB TABIIY BOYLIGIMIZ

Hozirgi vaqtda atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanishning eng muhim muammolaridan biri aholini yetarli miqdorda toza ichimlik suvi bilan ta‘minlashdir.

Umumiy sanoat korxonalarini mavjud suv manbalarining 20%ini tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarishdan chiqqan oqava suvlar tarkibida o‘ta zaharli moddalar, og‘ir metallar mavjud. Kon–ruda sanoati korxonalarini oqava suvlarida og‘ir metallar ruxsat etilgan me‘yordan 50 barobar, neft undan ham ko‘p uchraydi. Tahliliy nazoratga ixtisoslashgan davlat inspeksiyasi mutaxassisleri ma‘lumotiga ko‘ra, 626 sanoat korxonalaridan ko‘p miqdorda yetarli tozalanmagan oqavalari chiqib turibdi.

Ulardagi oqavalarni tozalaydigan qurilmalarning ishlash samaradorligi 50%-90% o‘rtasidagi quvvat bilan ishlatilmoqda. Bu esa oqava suvlarining ifloslik darajasini keskin oshib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Nemis olimi G.Libman aytganidek, bizning sayyoramizda kishilarning salomat qolishlari uchun texnikaning mo‘jizalari emas, balki toza, ichish uchun yaroqli suv yetarli bo‘lishi kerak.

Sayyoramizning $\frac{3}{4}$ qismini okean, dengiz, ko‘l va daryolarning suvi egallagan. Ammo iste‘mol qilishga yaraydigan toza ichimlik suv miqdori juda oz, yerdagi jami suv zahirasi o‘rtacha 0,6 %ni tashkil etadi.

Qarshi kanali atrofida joylashgan quvurlarning oqavalari kanalga oqizib qo‘yilgan. Oqibatda viloyatning quyi qismidagi ko‘p xo‘jaliklarning minglab gektar unumdor yerlari zax bosib, sho‘rlanib ketdi. Suv muhofazasining muhim asosiy shartlaridan biri – uni tejamli sarflashdir. Suvni tejashda oqava suvlarni yig‘ib uni tozalash va qayta ishlatish katta ahamiyatga egadir. Bu ish foydalanadigan suvni tejaydi, yerni suv sho‘rlanishi va suvni ifloslanishining oldini oladi. Yapon yozuvchisi Xirosi Noma: “Mabodo kelgusida yerda hayot tamom bo‘lsa, u atom urushidan emas, suv yetishimovchiligidan bo‘ladi”, - degan edi. Shuning uchun biz

hayot manbai bo'lgan suvni toza saqlash va ko'paytirish choralarini ko'ra olsak, kelgusida xalqimizning sog'lom va farovon turmush kechirishini ta'minlagan bo'lamiz.

Topshiriq:

1. Matnni o'qing. «Suv – hayot manbai» mavzusida insho yozing.
2. Iqtisodiyotga oid quyidagi terminlar yordamida gaplar tuzing. Pulning qadrsizlanishi, qarz, hisobot, kimoshdi, qimmatbaho qog'oz, arzon mol.

HUJJATLAR

MA'LUMOTNOMA

Nazar Ahmedov haqiqatdan Toshkent Moliya institutining Boshqaruv fakultetining 1 kurs BK - 50 guruhida o'qiydi.

Fakultet dekani

Kotiba

Sana

Muhr

TARJIMAYI HOL

